Бунда албатта ишловчининг жисмоний ва руҳий ҳолати, топшириқни тўғри бажара олишга эга бўлган етарли малакаси, соҳага оид эгаллаган билими, орттирилган тажрибаси ва функционал мажбуриятлари инобатга олиниши шарт. Шундай иш турлари мавжудки, уни бажаришда албатта билим ва кўникма талаб этилади. Ҳамма ҳам шундай талабга жавоб беравермайди. Корхонада инсон капиталининг ривожлантиришдаги энг биринчи босқич-бу ишловчини хавфсиз ва малакали иш олиб боришга ўқитишдир.

2. Иш жараёнида ишловчига таъсир қиладиган ташқи хавфли ва зарарли омилларни, хатарларни тўғри баҳолаш.

Илмий тадқиқотлар натижасида белгиланган мъёрдан ортиқ бўлан ҳар қандай физик, киёвий, биологик ҳамда руҳий-эмоционал факторлар иш жараёнида ишловчини жароҳатлаши ёки касбий касалликни келтириб чиқариши мумкин.

Ишнинг оғирлиги ва тифизлик даражаси қандай бўлишидан қатъий назар у ақлий меҳнат бўладими ёки жисмоний меҳнат бўладими, бари бир ташқи таъсир этувчи хавфли ёки зарарли ташқи омиллар мавжуд бўлади. Масалан булар тоифасига: шовқин ва титраш, табиий ва сунъий ёритганлик, юкларни ортиш ва тушуриш, электромагнит майдон кучланганлиги, баландликларда ишларни бажариш ёки конструкцияси носоз иншоотларда ишлаш ва ҳаказолар кириши мумкин. Ишловчини ўз меҳнат вазифаларини бажаришидан олдин мана шундай омиллар тўғрисида ва бажарадиган ишини ушбу омилларни инобатга олган ҳолда, унга тайёрланган ҳолда ишга юборилиши, содир бўлиши мумкин бўлагн бахтсиз ҳодисаларнинг келиб чиқиш эҳтимолини камайтиради.

3. Иш жараёнида ишловчига ташқи зарарли таъсирдан ҳимояланиш учун шахсий ва жамоавий ҳимоя воситалари ва анжомларини танлаш, огоҳлантирувчи восита ва белгилардан тўғри фойдаланиш.

Юқорида ишлаб чиқариш корхоналарида хавфсиз меҳнат шароитларини таъминлаш корхона маблағлари ҳисобидан амага оширилиши тўғрисида фикр юритдик. Бунда бажариладиган иш туридан келиб чиқиб, мавжуд ҳар қандай хатарларни олдини олишга қаратилган техник ва технологик тадбирларни белгилаш назарда тутилади. Агар бажариладиган ишлар электр токи таъсири остида бўлса, демак диэлектрик ҳмоя воситалари, балндликдаги ишлар бўлса, тегишли анжомлар, ҳимоя тўсиқлари ва бошқалар. Мақсад хавфли ва зарарли омилларни ишловчи саломатлигига салбий таъсирини олдини олиш ва бу билан соғлом меҳнат шароитларини таъминлаш.

4. Иш оғирлиги ва тифизлигини меъёрлаштириш.

Эргономика фани инсоннинг ишлаб чиқариш жараёнида жисмоний ва ақлий меҳнат қобилияти, унинг иқониятлари, чррачаши ва зўриқиши, меҳнат қобилиятининг қайта тикланиши, билимларни ўзлаштириш салоҳияти ва шу кабиларни ўрганади. Мазкур соҳа олимлари таъкидлашига ишловчининг меҳнат қобилияти қайта тикланиши учун ишловчига вақти-вақти билан ишлар оарсида танаффуслар бериб турилиши ундаги чарчаш ва зўриқишни ноллаштиради.

5. Хатарли рискларга барҳам бериш.

Баъзан шундай ҳолатлар ҳам бўладики, ишловчи хатарни аниқ-равшан кўриб турган бўлса ҳам, таваккалчиликка қўл уради. Бу ҳар доим ҳам яхшиликка олиб келавермайди. Хатар тўлиқ бартараф этилмагунга қадар ишларни олиб боришни тўхтатса бу ишловчи учун ҳам корхона учун ҳам манфаатли бўлади.

6. Ишни тўғри олиб борилишини назорат қилишни йўлга қўйиш.

Инсон табиатида гоҳо унитиш, бепарволик ёки нотўғри қарорлар қабул қилиш, янглишиш каби камчиликлар мавжуд. Йиллар давомида ҳар доим бир ҳил ишни қилвериб, ўз ишини устаси бўлиб кетган инсонлар ҳам гоҳида янглишадилар. Энг хавфлиси шундаки, улар баъзан хато қилганларини сезмайдилар. Энг ёмони бу хато ўзига ёки ўзгаларга қимматга тушиши мумкин. Дастгоҳларни созлашда, электр тармоғига уланишда ёки транспорт воситасини серқатнов йўлда бошқаришда хатога йўл қўйиш бир эмас, бир қанча инсонларни жароҳатлаши мумкин. Мана шундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида, ишларнинг тўғри олиб борилиши устидан даврий назоратни таъминлаб туриш керак.

Корхонада ишлаб чиқариш билан боғлиқ бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олиш, меҳнат муҳофазаси тизимини такомиллаштириш албатта ўзига яраша маълум миқдордаги пул маблағлари харажатларини талаб этади. Лекин, бундай тадбирларни амалга оширмаслик натижасида бир қанча салбий оқибатлари келиб чиқиши мумкин:

биринчидан, ишлаб чиқариш жараёнида ходим билан содир бўлган бахтсиз ҳодиса ишлаб чиқариш интенсивлигига ҳам, яратилган инвестицион муҳитга ҳам салбий таъсир кўрсатади, қолаверса малакали кадрлар етишмовчилигига ҳам сабаб бўлиши мумкин;

иккинчидан, Ўзбекистон Республикасида амалдаги қонунчиликка асосан корхона учун ортиқча пул маблағлари сарф-харажатларига олиб келади ва иқтисодий самарадорликка путр етказади.

### **Хулоса ва таклифлар**

Юқорида келтирилганларни чуқур таҳлил қилиб, бир қанча хулосаларга келиш мумкин:

Ишлаб чиқариш корхоналари тўлиқ иқтисодий самарадорликка эришиш учун албатта инновацион технологиялар асосида ишлаб чиқаришни модернизация қилишни йўлга қўйишлари керак. Бу билан биринчи навбатда энергия тежамкорлигига эришиш, бино ва

иншоотлардан унумли фойдаланиш ҳамда ички бозорда ҳам ташқи бозорида ҳам рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқариш мақсадларини кўзлашлари керак.

Персонални ривожлантириш сиёсатига катта эътибор қаратишлари шарт. Мутахассисларнинг доимий малака оширишлари, замонавий ускуна ва мураккаб қурилмаларни бошқариш учун дунёнинг энг илғор мамлакатларида тегишли маҳорат ошириш-стажировка ўтишлари муҳим ҳисобланади. Энг малакали мутахассисларнинг вақти-вақти билан рағбатлантирилиб турилиши ишлаб чиқариш самарадорлигига эришишда ўзини оқлайди.

Барча ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнатни муҳофаза қилиш тизимини ривожлантириш бўйича максимал чора-тадбирлар белгиланиши, меҳнат муҳофазаси бўйича мутахассис лавозими жорий этилиши лозим. Янги технологияларнинг кириб келиши бу соҳага технологик хавфсизликни таъминлаш нуқтаи назаридан алоҳида ёндашувни талаб этади. Қурилма ва дастгоҳларда ишловчининг энг аввало хавфсизлик талаблари тўлиқ бажарилгандагина ишлаб чиқариш жараёнига жалб этилиши концепцияси устивор бўлиши лозим. Бунга қўшимча равишда шуни айтиш лозимки, ишлаб чиқариш жараёнида ходим меҳнатини муҳофаза қилишни янада такомиллаштириш мақсадида мазкур тадбирларни тўлиқ рақамлаштириш кўзланган мақсадга эришишни тезлаштиради.

Ишлаб чиқариш корхоналарига тижорат банклари томонидан кредитлар ажратилишида корхона фаолияти ўрганилиши ва унда меҳнат муҳофазаси бўйича тегишли тадбирлар белгилангани ҳам эътиборга олинishi керак. Чунки ишлаб чиқариш корхоналари ўз бизнесларини ҳар қанча ривожлантиришлари мумкин, лекин бу ишловчининг ишлаб чиқариш жараёнидаги жароҳатланиши эвазига бўлиши керакмас. Шундай экан аввало хавфсиз меҳнат шароити таъминлангани инобатга олинган бўлиши керак.

Корхоналарнинг йиллик маблағ фондлари шакллантирилишида кўзда тутилмаган сарф-харажатлар учун ҳам пул маблағлари ажратилишини таъминлаш керак. Айнан мана шу орқали ишлаб чиқаришга ажратилган маблағни мақсадли йўналтириш ва ишлаб чиқаришдан олинган маблағни режали тасарруф этишда мақсадга эришиш мумкин бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ш. Р. Қобилов “Иқтисодиёт назарияси”. Тошкент-2013 йил.
2. X. Shaiyev, I. Xabibullayev. “STATISTIKA” Toshkent-2013 йил.
3. “Менежмент ва бизнес асослари”-Т “Меҳнат”-1997 йил.
4. А. Қўчқоров, Х. Тошматов, Ж. Исроилов “Менежмент стратегияси”. Тошкент-2003 йил.
5. T. Malikov, O. Olimjonov “MOLIYA”. Toshkent 2019 йил.

6. M. Dodgson The management of technological innovation: An international and strategic approach. – Oxford University Press, 2000 year.
7. И. Афонин Управление развитием предприятия: стратегический менеджмент, инновации, инвестиции, цены : учеб. пособие. 2010 год. – 314 с.
8. Е. Водачек, О. Водачкова Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 2009 год.-167 с.
9. Э. Уткин Управление компаниями. Москва, 2007 год.-304 с.
10. Й.Шумпетер Теория экономического развития / Й. Шумпетер; пер. с нем. В.С.Автономова, М.С.Любского, А.Ю.Чепуренко. – М.: Прогресс, 1982 год. – 456 с.
11. Ф. Эргашев, Д. Раҳимова, О. Парпиев “ИННОВАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ” Тошкент. 2005 йил.
12. И. Улашев, Ш. Атамурадов “Корхона иқтисодиёти ва менежменти” Тошкент. 2013 йил.
13. М.Р. Todaro “Economic development” Washington. 2010 year.
14. А. Чучулина “Корпоротивное управление”. Томск. 2008 год.
15. Г. Головенчук “Цифровая экономика”. Минск. 2020 год.
16. Л. Мари “Основы цифровизации народного хозяйства и индустрии” Таллин. 2019 год.
17. Ж. Курбонов, З. Мамарасулов “Хаёт фаолияти хавфсизлиги” Самарқанд-2016 йил.
18. Қ. Абдурахмонов “Меҳнат иқтисодиёти. Назария ва амалиёт”- 2019 йил.
19. Н. Иминова “Риск-менежмент”. Тошкент-2017 йил.
20. И. Байджанов, М. Самандаров “Эргономика асослари” Самарқанд-2023 йил.



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



## ФИСКАЛ ВА МОНЕТАР СИЁСАТНИНГ МУВОФИҚЛИГИ ВА УЛАРНИНГ МЕҲНАТ БОЗОРИ БИЛАН АЛОҚАДОЛИГИ

**Ҳакимов Ҳакимжон Абдулло ўғли,**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети тадқиқотчиси

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a35](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a35)

**Аннотация.** Ушбу мақола фискал ва монетар сиёсатнинг меҳнат бозорига таъсири ва уларнинг ўзаро мувофиқлашувини таҳлил қилади. Асосий эътибор фискал ва монетар сиёсатнинг макроиқтисодий барқарорликка, шу жумладан, инфляция, ялпи ички маҳсулот ва инвестиция муҳитига қандай таъсир қилишига қаратилган.

Мақолада турли мамлакатларда олиб борилган илмий изланишлар ва натижалар муҳокама қилинган, шу билан бирга фискал ва монетар сиёсатларнинг меҳнат бозорига бевосита ва билвосита таъсирлари таҳлил этилган. Шунингдек, фискал ва монетар сиёсатларнинг бир-бири билан мувофиқлашган ҳолда иқтисодий ўсишни таъминлаш ва меҳнат бозорида барқарорликни сақлашга қандай ёрдам бериши мумкинлиги ҳақида мулоҳазалар келтирилган.

**Калит сўзлар:** фискал сиёсат, монетар сиёсат, меҳнат бозори, инвестиция муҳити, бандлик, инфляция, барқарорлик.

## СООТВЕТСТВИЕ БЮДЖЕТНОЙ И ДЕНЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ И ИХ СВЯЗЬ С РЫНОКОМ ТРУДА

**Ҳакимов Ҳакимджон Абдулло угли**

научный сотрудник Ташкентский Государственный  
Экономический Университет

**Аннотация.** В данной статье рассматривается влияние фискальной и монетарной политики на рынок труда и их координация. Основное внимание уделяется тому, как налогово-бюджетная и монетарная политика влияют на макроэкономическую стабильность, включая инфляцию, валовой внутренний продукт и инвестиционный климат.

В статье рассматриваются научные исследования и результаты, проведенные в различных странах, анализируются как прямое, так и косвенное влияние фискальной и монетарной политики на рынок труда. В нем также рассматривается, как скоординированная налогово-бюджетная и денежно-кредитная политика может способствовать экономическому росту и поддерживать стабильность на рынке труда.

**Ключевые слова:** фискальная политика, монетарная политика, рынок труда, инвестиционный климат, занятость, инфляция, стабильность.

## COMPATIBILITY OF FISCAL AND MONETARY POLICIES AND THEIR RELATIONSHIP WITH THE LABOR MARKET

Khakimov Khakimjon Abdullo ugli

Researcher of TSUE

**Abstract.** This article examines the impact of fiscal and monetary policy on the labor market and their coordination. The primary focus is on how fiscal and monetary policies affect macroeconomic stability, including inflation, gross domestic product, and the investment climate.

The article discusses scientific research and findings conducted in various countries, analyzing both the direct and indirect effects of fiscal and monetary policies on the labor market. It also contemplates how coordinated fiscal and monetary policies can contribute to economic growth and maintain stability in the labor market.

**Keywords:** fiscal policy, monetary policy, labor market, investment climate, employment, inflation, stability.

### Кириш

Иқтисодиётнинг динамикасига турли омиллар таъсир кўрсатади, бунда фискал ва монетар сиёсат ҳал қилувчи роль ўйнайди. Фискал ва монетар сиёсатнинг уйғунлиги ва самарадорлиги макроиқтисодий барқарорликка, жумладан, инфляция, ялпи ички маҳсулот ва инвестиция муҳитига бевосита таъсир қилади. Ушбу сиёсатлар самарали мувофиқлаштирилганда, паст ишсизлик ва барқарор иш ҳақи ўсиши билан ажралиб турадиган мувозанатли меҳнат бозори шаклланиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги Фармонида “Пул-кредит, фискал ва ташқи савдо сиёсатларини ўзаро мувофиқлаштириш ҳамда товар ва хизматлар бозорида рақобат муҳитини яхшилашга қаратилган таркибий ислохотларни давом эттириш орқали 2030 йилга бориб йиллик инфляцияни 5-6 фоиз даражасида таъминлаш” - барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлашнинг устувор мақсадларидан бири этиб белгиланган [1].

Шу нуқтаи назардан, фискал ва монетар сиёсат ўртасидаги ўзаро мувофиқликни ва уларнинг меҳнат бозорига таъсирини ўрганиш иқтисодиётни самарали бошқариш ва жамиятнинг умумий фаровонлигини ошириш учун муҳим ҳисобланади.

### Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Фискал ва монетар сиёсат бевосита меҳнат бозори билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, иш ўринлари яратиш ва саноатни қўллаб-қувватлашга қаратилган фискал сиёсат бандлик даражаси ва иш ўринлари сифатига бевосита таъсир кўрсатади. Монетар сиёсат эса инвестиция ва истеъмол талабига таъсир кўрсатиш орқали меҳнат бозорига билвосита таъсир қилади.



Иқтисодчилар Elva Bova, Christina Kolerus ва Sampawende J.A. Таъриқларнинг “A fiscal job? An analysis of fiscal policy and the labor market” номли мақоласида фискал сиёсатнинг меҳнат бозори динамикасидаги роли кўриб чиқилади. Оукен қонунининг компонентлари орқали фискал сиёсат воситалари, шунингдек, фискал консолидация ва экспанция эпизодлари меҳнат бозори натижаларига қандай таъсир қилиши баҳоланади. Муаллифлар 1985-2013 йиллар давомида ИХТТнинг 34 та давлатидан иборат панелдан фойдаланган ҳолда, фискал консолидация Оукен коэффицентига катта, ижобий ва кучли таъсир кўрсатишини аниқлайдилар. Бу таъсир, айниқса, харажатларга асосланган консолидациялар учун кучли бўлиб, ҳукумат ҳажмининг қисқариши иш билан бандликнинг ишлаб чиқаришга жавоб бериш қобилиятини оширади ва бизнес циклидаги экспанцион ёки ретсессия ҳолати билан ўзгармаслигини кўрсатади [2].

Италиялик иқтисодчилар Alesina ва Tabellini (1987) “Rules and discretion with noncoordinated monetary and fiscal policies” номли мақоласида пул-кредит сиёсатининг вақтинчалик самарасизлиги солиқ имтиёзларининг таъсири билан боғлиқлигини исботлаганлар. Уларнинг фикрича, вақти-вақти билан самарасиз пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш масаласи пул-кредит ва фискал сиёсатни мувофиқлаштириш билан боғлиқ. Муаллифлар учта иштирокчи (марказий банк, фискал органлар ва иш ҳақи миқдорини белгиловчи органлар)га эга моделни тақдим этадилар, бу моделда солиқлардаги бузилишлар аниқ моделлаштирилади [3].

Олимлар Kliem, Kriwoluzky ва Sarferaz (2016) лар “Monetary-fiscal policy interaction and fiscal inflation: a tale of three countries” номли мақоласида фискал ва пул-кредит сиёсати ўртасидаги алоқадорликнинг фискал ҳолат ва инфляция ўртасидаги паст частотали муносабатларга таъсирини 1965 йилдан 1999 йилгача давлатлараро маълумотлардан фойдаланиш асосида ўрганишган.

Биринчи босқичда улар Германия, АҚШ ва Италиянинг пул-кредит ва фискал кўрсаткичларини оддий регрессия моделлари ва вақт ўзгарувчан VAR моделидан олинган далилларга асосан солиштиришган.

Молиявий ҳолат ва инфляция ўртасидаги паст частотали боғланиш марказий банк мустақиллиги даврида ва масъулиятли фискал сиёсат даврида паст ва мураса қила оладиган монетар органлар ҳамда жавобгар бўлмаган фискал сиёсат даврида анча юқори эканлигини аниқлашади.

Иккинчи босқичда улар паст частотали чора-тадбирларни тизимли равишда шарҳлаш ва узоқ муддатда бюджет сиёсатининг инфляция даражасига таъсир кўрсатувчи механизмларни кўрсатиш учун DSGE моделини шакллантиришган.

Уларнинг хулосасига кўра, DSGE моделининг натижалари шунини кўрсатмоқдаки, пул-кредит ва фискал сиёсатдаги ўзаро боғлиқ



Ўзгаришлар ва структуравий шокларнинг тарқалишидаги бир-бирига алоқадор ўзгаришлар фискал ҳолат ва инфляция ўртасидаги паст частотали муносабатлардаги ўзгаришларни изоҳлаши мумкин [4].

Jules Chouquetнинг “ Taylor Expansion, Finiteness and Strategies ” номли китобида Тейлор қоидаси кутилаётган инфляция даражаси мақсадли инфляция даражасидан ва кутилаётган ўсиш суръати ЯИМнинг узоқ муддатли ўсиш суръатларидан фарқ қилганда, Марказий банклар томонидан мақсадли қисқа муддатли фоиз ставкасини ҳисоблашда фойдаланиладиган воситалиги тушинтириб ўтилган. Иқтисодиётда Тейлорнинг қоидаси асосан фоиз ставкалари нима бўлишини ёки иқтисодиётдаги ўзгаришлар рўй берганда қандай бўлиши кераклигини аниқлаш учун фойдаланиладиган прогнозлаш моделидир. Тейлорнинг қоидаси Марказий Банкни инфляция даражаси юқори бўлган ёки бандлик даражаси тўлиқ бандлик даражасидан ошиб кетганда фоиз ставкаларини кўтариши кераклигини тавсия қилади. Аксинча, инфляция ва бандлик даражаси паст бўлганда, фоизларни пасайтириш керак [5].

#### **Тадқиқот методологияси**

Мазкур тадқиқот ишида фискал ва монетар сиёсатнинг меҳнат бозори билан алоқадоллиги бўйича илмий тадқиқот ишлари, олимларнинг қарашлари ҳамда билдирган фикр мулоҳазалари ўрганилган ва таҳлил этилган.

Тадқиқотда тизимли ёндашув, статистик, кузатиш ва қиёсий таҳлил усулларида фойдаланилди.

#### **Таҳлил ва натижалар муҳокамаси**

Фискал ва монетар сиёсат билан меҳнат бозори ўртасидаги муносабатлар мураккаб ва кўп қирралидир. Кенгайтириш сиёсати (харажатларни кўпайтириш ва фоиз ставкаларини пасайтириш) кўпинча янги иш ўринларини яратишга ва ишсизлик даражасини пасайтиришга олиб келади. Бироқ, агар бу сиёсатлар ҳаддан ташқари қўлланилса, улар инфляцияга олиб келиши мумкин.

Қисқартириш сиёсати (харажатларни қисқартириш ва юқори фоиз ставкалари) инфляцияни назорат қилишда ёрдам бериши билан бирга, ишсизликни ошириши мумкин.

Ушбу омилларнинг ўзаро таъсири меҳнат бозорининг умумий ҳолатини белгилайди ва мамлакатдаги муайян иқтисодий вазиятга қараб ўзгариши мумкин.

Шу билан бирга, ижтимоий сиёсат соҳасида аҳолининг реал даромадларини оширишга қаратилган барча бюджет ташаббуслари тўлиқ амалга оширилиши керак.

Узоқ муддатли барқарорликни таъминлаш учун ҳукумат харажатларни фискал буферларни вужудга келишига олиб келадиган даражада барқарорлаштиришга йўналтирилган сиёсатни олиб бориши мақсадга мувофиқ.

Бюджет даромадлари сиёсати кенгайтирилган солиқ базаси асосида жами солиқ тушумларининг ЯИМнинг муайян фоизигача (даромадларга қоида ўрнатиш чораларини кўриш орқали) ўсишини рағбатлантиришга йўналтирилиши лозим.

1-жадвал

**Фискал ва монетар сиёсатнинг меҳнат бозори билан алоқадорлиги**

№	Омиллар	Алоқадорлиги
1.	Солиқ сиёсати	Солиқлар даромад ва инвестицияларни тақсимлаш орқали меҳнат бозорига таъсир қилади. Юқори солиқлар бандлик ёки инвестицияларни чеклайди, паст солиқлар эса иқтисодий ўсишни ва янги иш ўринларини яратишни рағбатлантиради.
2.	Бюджет сиёсати	Давлат харажатлари, жумладан, инфратузилма ва ижтимоий дастурларга инвестициялар иш ўринларини яратиши ва ишчи кучига талабни оширади. Бюджет тақчиллиги солиқларнинг ошишига ёки давлат харажатларининг қисқаришига олиб келса, меҳнат бозорига босим ўтказиши мумкин.
3.	Пул-кредит сиёсати	Марказий банк фоиз ставкалари ва пул таклифини тартибга солиб, инвестициялар ва истеъмол талабига таъсир қилади. Юқори фоиз ставкалари инвестицияларни қисқартириши ва иқтисодий ўсишни секинлаштиради, бу эса меҳнат бозорига салбий таъсир қилади. Бошқа томондан, паст ставкалар иқтисодий фаолликни ва иш ўринларини яратишни рағбатлантириши мумкин.
4.	Инфляция ва ишсизлик	Инфляция ва ишсизлик ўртасида ўзаро боғлиқлик мавжуд (Филлипс эгри чизиғи). Паст ишсизлик кўпинча юқори инфляция билан бирга келади ва аксинча.
5.	Глобал омиллар	Глобаллашув ва халқаро савдо ҳам меҳнат бозорига таъсир қилади. Ички бозорни ҳимоя қилишга қаратилган чора-тадбирлар қисқа муддатда бандликни қўллаб-қувватлаши мумкин, аммо узоқ муддатда рақобатбардошлик ва инновацияларни камайтиради.

Манба: Муаллиф томонидан шакллантирилди.

Ҳукумат ва Марказий банк томонидан иқтисодий ўсишни таъминлаш ва ишбилармонлик фаоллигини жонлантириш учун шарт-шароитлар яратиш бўйича чора-тадбирларнинг кучайиши макро ва микроиқтисодий барқарорликни бузилишига олиб келиши мумкин.

Шу боис, Ҳукумат ва Марказий банк иқтисодиётни таъминланмаган эмиссия, пул қийматини асосиз пасайтириш ёки бошқа нобозор шакллар орқали молиялаштириш молия бозорининг беқарорлашиши ва

инқирози, инфляциянинг ўсиши билан боғлиқ жиддий хавфларни ўз зиммасига олишини (ҳуқуқий асосда) тан олиши лозим.

Марказий банк ўз сиёсатининг шаффофлиги ва башорат қилинадиган даражасини янада оширишни, алоқаларни яхшилашни, кейинги ҳаракатлар тўғрисида ўз вақтида хабардор қилишни ва зарур статистик ва таҳлилий маълумотларни тарқатишни таъминлаши керак.

Ҳукумат тариф сиёсатининг бир қисми сифатида инвестиция дастурининг амалга оширилишини ва асосий воситаларни янгилашни, шунингдек истеъмолчиларга хизматларнинг мақбуллиги ва сифатини таъминлаш мақсадида уларнинг хизматларининг самарали нархини шакллантириш мақсадида табиий монополист корхоналарни тартибга солувчи ёндашувларни такомиллаштириш давом эттирилиши лозим.

Ҳукумат ички бозорни истеъмол товарлари билан тўлдириш бўйича давлат сиёсати чораларини фаоллаштириши лозим. Бунда бозорда рақобатни ривожлантиришга қаратилган ташқи савдо эркинлаштирилишини таъминлаш ҳамда ички бозорни истеъмол товарлари билан тўлдириш мақсадида ишлаб чиқаришни рағбатлантириш ҳамда саноат соҳалари учун зарур бўлган ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш талаб этилади.

Ишлаб чиқариш харажатларининг асоссиз ошишига олиб келувчи омилларни доимий равишда қидириш ва бартараф этиш асосида ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар таннархини камайтириш лозим. Бунда ҳар йили ишлаб чиқариш харажатларини қисқартиришнинг йиллик мақсадли параметрларини ўрнатишни назарда тутган ҳолда вазирликлар, идоралар ва бошқа ташкилотлар таркибига кирувчи саноат тармоқлари корхоналарининг ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар комплексини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.


Иқтисодиёт тармоқларида маҳсулот таннархи шаклланишини таҳлил ва мониторинг қилиш механизмининг жорий этиш лозим. Бунда ҳар ҳафталик истеъмол нархлари индексларини ҳисоблаш учун қисқартирилган истеъмол саватчасини такомиллаштириш ва унга киритилган товарлар ва хизматлар таннархининг шаклланиши тўғрисидаги ҳар чораклик маълумотнинг сўров усули асосидаги статистик ҳисоботини шакллантириш мақсадга мувофиқ.

Инфляция бўйича мақсадли кўрсаткичларни ҳисобга олган ҳолда тартибга солинадиган нархлар (тарифлар)ни эркинлаштириш жадвалини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш лозим.

Ҳукумат ва Марказий банк маълумотлар алмашинуви, макроиқтисодий таҳлил ва прогнозларнинг ҳам келишилганлигини таъминлаши лозим. Бунда умумий мувозанатнинг замонавий моделлари ва прогнозлашнинг илғор методларини жорий этиши лозим.

Сўнгги йилларда иқтисодиётнинг турли тармоқларида иш ҳақи миқдори инфляцияга мос равишда тартибга солинган ва юқори

малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёж ортиши сабабли, иш ҳақи миқдорларида фарқлар пайдо бўлган. Масалан, 2022 йилда меҳнат бозоридаги ўртача иш ҳақи 3,9 млн сўм бўлган бўлса, айрим соҳаларда, жумладан молия ва суғурта, ахборот ва алоқа, ташиш ва сақлаш, саноат ва қурилиш соҳаларида бу рақам анча юқори бўлган. Бошқа томондан, соғлиқни сақлаш, таълим, яшаш ва овқатланиш хизматлари каби соҳаларда иш ҳақи ўртачадан паст бўлган.



**1-расм. Иш ҳақи ва меҳнат унумдорлигининг реал ўсиши динамикаси, фоизда**

Манба: Статистика агентлиги ва Марказий банк маълумотлари

2022 йилда иш ҳақининг реал ўсиш кўрсаткичи 8,6 фоизни ташкил этган, бу меҳнат унумдорлигининг 4,1 фоизга ўсганига нисбатан деярли икки баравар кўпдир. Бунинг натижасида, иш ҳақи миқдорининг ошиши истеъмол талабини қўллаб-қувватлашга хизмат қилган, бироқ меҳнат унумдорлиги билан иш ҳақи миқдорининг ошиши орасидаги фарқ иқтисодиётга инфляцион босим юклатиши ва маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг рақобатбардошлигини пасайтириши мумкин.

### Хулоса ва таклифлар

Фискал ва монетар сиёсат ҳамда меҳнат бозори ўртасидаги муносабатлар миллий иқтисодиётни бошқаришнинг мураккаблигидан далолат беради. Ушбу сиёсатлар иқтисодиётни бошқаришда кучли восита бўлсада, уларнинг муваффақияти эҳтиёткорлик ва мувофиқлаштирилган бўлишидадир.

Ушбу динамикани тушуниш ҳукумат, иқтисодчилар ва жамоатчилик учун жуда муҳим, чунки у иқтисодий конъюнктурани шакллантиради ва ҳар бир соҳа фаолиятига таъсир қилади.

Фискал ва монетар сиёсатни мувофиқлаштиришда истиқболда ички ишлаб чиқариш ҳажмларини доимий ошириш ва нархлар барқарорлигини таъминлаш мақсадларига жавоб берувчи тамойилларга ва вазифаларга асосланган ривожлантириш стратегиялари ва

дастурларини ишлаб чиқиш тизими устидан тартиб ва назоратни ўрнатиш мақсадга мувофиқ бўлиб, бунда:

маҳаллий ишлаб чиқарувчилар рақобатбардошлигини ошириш ва уларнинг ташқи иқтисодий шароитлардаги ўзгаришларга мослашувчанлигини ошириш;

ишлаб чиқариш, транспорт ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш;

марказлашган молиявий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш;

меҳнат унумдорлиги ва ишлаб чиқариш энергия самарадорлигини ошириш;

ишлаб чиқариш харажатларининг асоссиз ошишига олиб келувчи омилларни доимий равишда қидириш ва бартараф этишга асосланган ҳолда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар таннархини камайтириш вазибаларини ҳал этиш муҳим ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ахборот тизими ([www.lex.uz](http://www.lex.uz))

2. Elva Bova, Christina Kolerus & Sampawende J.A. Tapsoba. A fiscal job? An analysis of fiscal policy and the labor market. IZA J Labor Policy 4, 13 (2015). <https://doi.org/10.1186/s40173-015-0041-x>.

3. Alesina, A., Tabellini, G., 1987. Rules and discretion with noncoordinated monetary and fiscal policies. Econ. Inq. 25, 619–630.

4. Kliem, M., Kriwoluzky, A., Sarferaz, S., 2016. Monetary-fiscal policy interaction and fiscal inflation: a tale of three countries. Eur. Econ. Rev. 88, 158–184.

5. Chouquet, J. (2019). Taylor expansion, finiteness and strategies. Electronic Notes in Theoretical Computer Science, 347, 65-85.



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### INSON KAPITALI RIVOJI – SHAХS-JAMIYAT-DAVLAT TARAҚЌIЁТИНИНГ КАФОЛАТИ

**Нодира Шотурсунова Насировна**

Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a36](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a36)

**Аннотация.** Мақолада жамиятлар ва давлатлар тараққиёти, халқларнинг иқтисодий фаровонлиги бевосита инсон капиталига чамбарчас боғлиқлиги ҳақида сўз юритилади. Инсон капитали ривожига етарлича эътибор қаратмаган давлатлар ҳар қанча бой табиий имкониятларга эга бўлмасин барибир тараққиётдан ортда қолиши таҳлил қилинган. Инсон капитали ривожига таълим, айниқса, катталар таълими, соғлиқни сақлаш, ижтимоий ҳимоя соҳаларидаги ислохотлар зарурати изоҳланган. Янги Ўзбекистонда бу борада олиб борилган туб ўзгаришларнинг дастлабки натижалари эътироф этилган.

**Таянч тушунчалар:** “иқтисодий одам”, инсон капитали, касб-ҳунар, таълим, олий маълумот, катта ёшдагилар таълими, мутахассислик, даромад, тиббий хизматлар, ижтимоий ҳимоя.

### РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА – ГАРАНТИЯ РАЗВИТИЯ ИНДИВИДУАЛЬНО-ОБЩЕСТВА-ГОСУДАРСТВА

**Нодира Шотурсунова Насировна**

Доктор философии по экономике (PhD)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a36](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a36)

**Аннотация.** В статье говорится о развитии обществ и государств, а экономическое благополучие народов напрямую зависит от человеческого капитала. Проанализировано, что страны, которые не уделяют должного внимания развитию человеческого капитала, какими бы богатыми природными ресурсами они ни располагали, все равно будут отставать в развитии. В развитии человеческого капитала разъяснялась необходимость реформ в сферах образования, особенно образования взрослых, здравоохранения и социальной защиты. Зафиксированы первые результаты коренных преобразований, проведенных в этом отношении в Новом Узбекистане.

**Ключевые слова:** «хозяйственный человек», человеческий капитал, профессия, образование, высшее образование, образование взрослых, специализация, доход, медицинские услуги, социальная защита.

### HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT - GUARANTEE OF PERSONAL-SOCIAL- STATE DEVELOPMENT

**Nodira Shotursunova Nasirovna**

Doctor of Philosophy in Economics



**Abstract.** The article talks about the development of societies and states, and the economic well-being of peoples directly depends on human capital. It has been analyzed that countries that do not pay enough attention to the development of human capital, no matter how many rich natural resources they have, will still lag behind in development. In the development of human capital, the need for reforms in the fields of education, especially adult education, health care, and social protection was explained. The initial results of the fundamental changes carried out in this regard in New Uzbekistan have been recorded.

**Key words:** "economic man", human capital, occupation, education, higher education, adult education, specialization, income, medical services, social protection.

## **Кириш**

Бугун дунё миқёсида оқибатларини олдиндан айтиш мушкул бўлган геосий қарама-қаршиликлар, иқтисодий ва сиёсий санкцияларни қўллаш ҳолати авж олмоқда. Мамлакатлар ва минтақалараро зиддиятлар, глобал иқтисодий тизимлар ва логистика занжирларидаги узилишлар айниқса ривожланаётган давлатлар иқтисодиётига, корхоналар фаолиятига жиддий салбий таъсир кўрсатмоқда. Мана шундай мураккаб шароитда давлатлар ва улардаги тадбиркорлик субъектларининг, аҳолининг иқтисодий фаровонлигини таъминлаш кўп жиҳатдан инсон капитали нечоғлиқ ривожланганига боғлиқ бўлиб қолмоқда.

Тадқиқотимиз долзарблиги ва зарурати янги Ўзбекистонда жадал олиб борилаётган иқтисодий, ижтимоий ислохотлар ҳамда уларнинг ҳуқуқий асоси бўлган нолрматив-ҳуқуқий ҳужжатларда ўз ифодасини топади. Хусусан, “Инсон қадрлари учун” тамойили асосида халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, иқтисодиёт тармоқларини трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш, инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш ҳамда фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган ислохотларнинг устувор йўналишларини белгилаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 Фармони билан тасдиқланган тараққиёт стратегиясида<sup>1</sup>, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида<sup>2</sup> ҳам биринчи навбатда “Ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш” деган мақсадга эътибор қаратилди ва бу мақсадга эришиш учун амалга оширилиши зарур бўлган вазифалар қатъий белгилаб олинди.

Мақоланинг асосий мақсади янги Ўзбекистонда шахс-жамият-давлат тамойилини амалга тадбиқ этишда инсон капиталининг ривож

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли “«Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/docs/6600413>



қанчалар муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатиш ва бу жараёнда биринчи навбатда эътибор қартиш зарур бўлган масалалар юзасидан таклиф ва тавсиялар тайёрлашдан иборат.

### **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Бугунги кунда иқтисодиёт мутахассислари инсон капиталини, яъни шахсларнинг билим ва кўникмалари билан боғлиқ ресурсларни иқтисодий ривожланишнинг муҳим таркибий қисми сифатида атрофлича тадқиқ этмоқдалар<sup>3</sup>.

“Инсонни ривожлантириш – одамларнинг узоқ ва соғлом, муносиб турмуш кечиришлари, маълумотли бўлишлари учун зарур воситалардан фойдаланишлари имкониятларини кенгайтиришдир. Аммо бу имкониятларни одамларнинг ўзлари танлайдилар. Ривожлантириш жараёни инсонга унинг еҳтиёжлари ва манфаатларига мувофиқ равишда ўзини ривожлантириш учун қулай шароитларни яратишга хизмат қилиши керак”<sup>4</sup>.

Классик назария асосчиларидан бири – “иқтисодий одам”, “инсон капитали” тушунчаларини истеъмолга киритган А.Смитнинг таъкидлашича “иқтисодий одам” шахсий манфаати ва мақсадини кўзлаб, турмушини яхшилашга интилар экан, айти пайтда жамият манфаати учун ҳам меҳнат қилади<sup>5</sup>. Орадан ўтган икки аср мобайнида ушбу қараш мустаҳкам асосга эга эканлиги янада яққолроқ намоён бўлиб бормоқда. Яъни инсон капитали ривожланмаган давлатлар ҳар қанча бой табиий имкониятларга эга бўлмасин барибир тараққиётдан ортда қолиши шубҳасиз.

Бугун ривожланган дунёда умрбод таълим олиш тенденцияси тобора авжланиб бормоқда. Лекин афсуски, аксар постсовет давлатларида ҳамон битта дипломга эга бўлишни, яъни олий маълумот олишни бош мақсад қилган омма шаклланишда давом этмоқда. Муайян соҳанинг чинакам мутахассиси бўлиш ва ўз билимларини изчил ошириш ва йўналишларини кенгайтириш инсон капитали ривожининг ўзгармас талабларидан ҳисобланади.

Одатда инсон капитали индекси (Human Capital Index (HCI)) – соғлиқни сақлаш ва таълимнинг кейинги авлод ишчиларининг самарадорлигига қўшган ҳиссасини миқдорий жиҳатдан белгилайди.

Жаҳон банки томонидан юритиб бориладиган Инсон капитали индекси илк бор 2018 йил октябрь ойида эълон қилинган ва 157 мамлакатни ўз ичига олган. Инсон капитали индекси боланинг келажакда қай даражада самарали кадр бўлиб шаклланиши юзасидан аниқ тасаввур беради. Индекс қиймати 0 дан 1 гача интервалда бўлиб, қиймат 1 га яқинлашиши бугунги болаларнинг келажакда қай даражада

---

<sup>3</sup> Measuring human capital using global learning data | <https://www.nature.com/articles/s41586-021-03323-7>

<sup>4</sup> Абдурахмонов Қ., Курбонов С. Инсон тараққиёти. Ўқув қўлланма. Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. Б-4.

<sup>5</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Эксмо, 2007. –С.20.

етук инсон сифатида шаклланишини кўрсатади<sup>6</sup>.

Яқинда ўтказилган таҳлил шуни кўрсатадики, дунё бўйлаб ҳар ўн ўсмирдан олти нафари математика ва ўқиш бўйича асосий билим даражасига эриша олмайди<sup>7</sup>. Бу эса инсон-оила-жамият-давлат занжиридаги тизимли муаммоларни келтириб чиқаради.

Жаҳон банкининг Инсон капитали рейтингида Ўзбекистон 174 та мамлакат орасида 57-ўринни эгаллаган бўлса, БМТ Тараққиёт Дастурининг Инсон тараққиёти индексида 191 та мамлакат орасида 101-ўринда қайд этилган.

“Ўзбекистонда катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш: долзарб ҳолат ва ривожланиш истиқболлари” лойиҳаси доирасида олиб борилган тадқиқотлар катта ёшдагиларнинг ўқишга бўлган эҳтиёжи юқори эканини аниқлади. Хусусан, 24-33 ёшдагиларнинг 70 фоиздан ортиғи ўзларида билим ва кўникмаларнинг етишмаслигини ҳис қилмоқда, 34-42 ёшдаги респондентлар эса, уларнинг фикрига қўшилган. Жами респондентларнинг 60 фоизи билим ва кўникмалари етишмаслигини кўрсатиб ўтган<sup>8</sup>.

#### **Тадқиқот методологияси**

Мақолада илмий абстаркциялаш, эмпирик, тасвирий статистика, қиёсий, тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, анализ ва синтез, монографик таҳлил, статистик, таркиб-тизим таҳлил тадқиқот усулларидадан фойдаланилди.

#### **Таҳлил ва тадқиқот натижалари таҳлили**

Инсон капиталини ривожлантириш ва унга инвестиция киритиш янги Ўзбекистон учун ҳам ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади. Таҳлилларга кўра, кам даромадли мамлакатларда туғилган чақалоқлар ўзининг 37 фоиз имкониятларини иқтисодий қиймат яратишда фойдаланаётган бўлса, юқори даромадли мамлакатларда ушбу кўрсаткич 70 фоизга тенг. Ўзбекистонда эса, ушбу рақам ўртача 62 фоизни ташкил этмоқда. Бу борадаги натижаларни янада яхшилаш мақсадида мамлакатимизда норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштиришдан тортиб амалий чора-тадбирларни татбиқ этишгача бўлган жараёнлар жадал олиб борилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли фармони билан тасдиқланган ҳамда 100 та мақсаддан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида<sup>9</sup> IV йўналиш айнан “Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини

---

<sup>6</sup> <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/511fdead-a4c9-5634-898f-ee9a6a26f2e4>

<sup>7</sup> [Microsoft Word - FS46-more-than-half-children-not-learning-en-2017-v20.docx \(unesco.org\)](https://www.unesco.org/en/education/microlearning/more-than-half-children-not-learning-en-2017-v20.docx)

<sup>8</sup> [https://www.dvv-international-central-asia.org/fileadmin/files/central-asia/documents/Publications\\_and\\_other\\_media/Publications/2020\\_%d0%a3%d0%97%d0%91/AES-UZ-2020\\_final\\_version.pdf](https://www.dvv-international-central-asia.org/fileadmin/files/central-asia/documents/Publications_and_other_media/Publications/2020_%d0%a3%d0%97%d0%91/AES-UZ-2020_final_version.pdf)

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/docs/5841063>

ривожлантириш” дея белгиланган бўлиб, 34 та мақсад (37-70-мақсадлар)ни ўз ичига олади. Хусусан, ҳар бир фуқарога давлат ҳисобидан аниқ касб-хунарга ўқиш имкониятини яратиш, касбга ўқитиш кўламини 2 баравар ошириб, жами 1 миллион нафар ишсиз фуқарони касб-хунарларга ўқитиш ва бу жараёнда нодавлат таълим муассасаларининг иштирокини 30 фоизга етказиш, умумтаълим мактабларининг касб ўрганиш истагидаги битирувчиларини давлат томонидан камида бир касбни эгаллашига кўмаклашувчи тизимни жорий этиш қайд қилинган.

Шунингдек, 2022/2023 йилларда 6 ёшли болаларни мактабгача тайёрлов тизими билан қамраб олиш даражасини 90 фоизга, 2024/2025 ўқув йили якунига қадар 100 фоизга етказиш, мактабгача таълим тизимига хусусий сектор маблағларини жалб қилиш орқали 7 мингдан зиёд янги нодавлат мактабгача таълим ташкилотларини ташкил қилиш, мактабларни ривожлантириш миллий дастурини жорий этиш орқали халқ таълими тизимида қўшимча 1,2 миллион ўқувчи ўрни яратиш, ўқув ўринлари сонини 2026 йил якунига қадар 6,4 миллионгача етказиш, бошланғич синф (1 — 4-синф) ўқувчиларини бепул овқат билан таъминлаш тизимини кенгайтириш белгилаб олинган.

Ушбу ислохотларинг мантиқий давоми сифатида олий таълим билан қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини ошириш “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали эркин ва ижодий фикрлайдиган ёшларни нуфузли хорижий олийгоҳларга ўқишга юбориш кўламини 2 бараварга ошириш, бунда ёшларнинг 50 фоизини техник, аниқ фанлар ва IT соҳаларига ўқитиш назарда тутилган.

Чора-тадбирлар натижасида глобал инновацион индексда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилаш ва 2030 йилга қадар топ-50 мамлакатлари қаторига киришини таъминлаш белгиланган.

Қолаверса, тараққиёт стратегиясида тиббий хизматларни аҳолига янада яқинлаштириш ва сифатини яхшилаш, ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлашнинг самарали тизимини шакллантириш, жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланадиган фуқароларнинг сонини ошириш, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш каби ўта долзарб масалалар қамраб олинган.

Санаб ўтилган соҳалардаги ислохотлар биринчи навбатда инсон капиталини ривожлантиришга қаратилганлигини англаш мумкин. Статистик маълумотларга кўра Ўзбекистон аҳоли сони бўйича МДҲ давлатлари орасида 3-ўринда, дунёда мамлакатлари орасида 41-ўринда туради, ўртача яшаш ёши йилдан-йилга кўтарилиб, ҳозирда 73,8 ёшни ташкил этмоқда.

Мамлакатимизда бошланган катта ўзгаришларнинг илк самаралари сифатида соғлиқни сақлаш ва таълим соҳаларидаги рақамларга эътибор қаратиш дастлабки хулосалар чиқаришга асос бўлади.

Соғлиқни сақлаш соҳасига ажратилган Давлат бюджети маблағлари ҳажми 2017 йилда 7,1 трлндан 2023 йилда 28,4 трлнга ортди. Сўнгги 5 йилда оналар ўлими 18,9 дан 14,4 га, гўдаклар ўлими 11,5 дан 9,2 га камайган бўлса, аҳолининг ижтимоий касалликлар, яъни сил касаллигига чалиниши 2015 йилга нисбатан 12 фоизга камайган.

2030 йилга қадар юрак-томир, онкологик, қандли диабет ва ўткир респираторли касалликлар туфайли эрта ўлимни 30 фоизга камайтириш режалаштирилган.

Соғлиқни сақлаш тизимида хусусий сектор ва давлат-хусусий шериклик механизмини янада ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилмоқда. Сўнгги йилларда тизимда нодавлат тиббиёт улуши 30 фоизга ортган. 2025 йилга бориб, бу кўрсаткични 40 фоизга етказиш кўзда тутилган.

Статистика агентлиги маълумотларига кўра, 2023 йилнинг 1 июнь ҳолатига соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизматлар кўрсатиш соҳасида жами фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар сони 10 596 тани ташкил этган бўлса, 2023 йилнинг январь-май ойида бу соҳада 629 та янги корхоналар рўйхатдан ўтган<sup>10</sup>. Сондаги кўпайишлар сифат ўзгаришларига ҳам олиб бориши шубҳасиз.

Таълим тизимидаги дастлабки натижалар ҳам эътирофга лойиқ. Жумладан, болаларни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси 2017 йилда 27 фоиздан ҳозирда 70 фоизга ортди, 2026 йилга қадар 80 фоизга етказиш режалаштирилган. Бугунги кунда 30 мингга яқин мактабгача таълим ташкилотида 2 млндан зиёд бола тарбияланмоқда, олис ва чекка ҳудудларда минглаб оилавий боғчалар ташкил этилди, тарбиячи ва педагоглар сони 3 бараварга ортди.

Мактабларда 100 фоизлик қамров даражаси таъминланган, ўқувчиларга иккита хорижий тил ва битта касб ўргатиладиган амалиёт жорий қилинди, мактаб дарсликларига STEAM таълимига асосланган мавзу ва машқлар киритилмоқда.

Ёшларни олий таълим билан қамраб олиш даражаси ҳам орди. Олти йил аввал олий таълимга қамров 9 фоиз эди, ҳозир бу кўрсаткич 38 фоизга етди.

Муҳим жиҳатлардан бири – давлат олий таълим муассасаларида STEM йўналиши бўйича 50 мингга яқин хотин-қизлар таҳсил олмоқда. Давлат илмий дастурлари доирасида олима аёллар раҳбарлигида STEMни ривожлантириш бўйича 86 млрддан сўмдан ортиқ бўлган 52 та илмий лойиҳа амалга оширилмоқда.

---

<sup>10</sup> [https://t.me/statistika\\_rasmiy](https://t.me/statistika_rasmiy)

Илгари хотин-қизларнинг бакалавриятдаги қамрови 38 фоизни ташкил этган бўлса, бугунги кунда 48 фоизни ташкил этмоқда. Уларнинг магистратурадаги қамров даражаси 37 фоиздан 51 фоизга ортган.

2019-2022 йилларда 500 мингга яқин ишсиз аёллар касбга, бизнес ва тадбиркорлик асосларига ўқитилган, 800 мингдан орқтиғининг доимий бандлиги таъминланди, 700 мингдан ортиқ аёлларга 20 трлн сўмдан ортиқ кредитлар ажратилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-87-сон Фармони<sup>11</sup> билан тасдиқланган 2022 – 2026 йилларда хотин-қизларнинг мамлакат иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётининг барча жабҳаларида фаоллигини ошириш бўйича миллий дастурда ҳам хотин-қизлар инсон капиталини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Жумладан, миллий дастурни амалга оширишнинг учинчи босқичида (2026 йил) хотин-қизларнинг ҳуқуқий, тиббий, психологик саводхонлигини ошириш ҳамда илмий-маданий иқтидори ва ижодкорлигини қўллаб-қувватлаш ҳисобига инсон капитали сифатини яхшилашга қаратилган чора-тадбирлар амалга оширилиши назарда тутилган. Бунда миллий дастурнинг асосий натижаларига эришиш, мақсадли параметрлари кўрсатилган инсон капиталини етакчи ривожланган мамлакатларда қабул қилинган мезонларга мувофиқ баҳолаш тартибига ўтиш ҳамда хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш учун индикаторлар яратиш ишлари олиб борилади.

Миллий дастурнинг амалга оширилиши натижасида “Бир миллион дастурчи” лойиҳасида иштирок этадиган хотин-қизлар сони 30 фоизга етказиш, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, хотин-қизлар бандлигига кўмаклашиш мақсадида 14 та ҳудудда кооперативлар фаолияти йўлга қўйиш, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясининг магистратурасига ўқишга тавсия этилган номзодлар орасида хотин-қизлар улуши 30 фоизгача етказиш, республикада истиқомат қилаётган 337 мингдан зиёд хотин-қизларни тиббий, ижтимоий ва касбий реабилитация чоралари билан қамраб олиш кўламини кенгайтириш, гендер тенгликка эришиш даражаси бўйича дунё мамлакатлари рейтингида мамлакатимизнинг ўрни сезиларли ошириш, жазони ижро этиш муассасаларида сақланаётган хотин-қизларнинг жамият ҳаётига мослашувчанлиги ошириш, чет элга ишлаш учун чиқиб кетган хотин-қизларни ҳуқуқий қўллаб-қувватлаш йўлга қўйиш, хотин-қизлар орасида ишсизлик даражасини камайтириш, аёллар тадбиркорлигини ошириш, камбағалликни қисқартириш, оғир ижтимоий вазиятга тушиб

---

<sup>11</sup> <https://lex.uz/docs/5899498>



қолган хотин-қизларнинг турмуши яхшилаш, давлат ва жамият бошқарувида аёлларнинг ўрни ва мавқеи янада мустаҳкамлаш, хотин-қизларнинг таълим олиши учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш, илм-фан соҳасида аёлларнинг ўрнини оширишда ислохотларни янги сифат босқичи амалда намоён бўлади.

Ҳозирда мамлакатимизда туғилиш динамикаси ўсиб бормоқда ва ҳар йили ўртача 900 мингдан ортиқ бола туғилмоқда. Меҳнат бозорига ҳар йили 600 минг ёшлар кириб келаётган бўлса, келгуси 10 йилда бу рақам 1 миллионга етади. Мазкур демографик ўсиш мамлакат учун ҳам имконият, ҳам катта масъулият ҳисобланади. Шунинг учун инсон капиталини муттасил ривожлантириб боришга эътибор қаратиш ва бу йўналишда инвестиция киритиш мамлакат истиқболини белгилайди, десак хато бўлмайди.

### **Хулоса ва таклифлар**

Юқорида билдирилган фикрлардан хулоса қилиш мумкинки, инсон капиталини ривожлантиришни истаган давлат фуқароларнинг умрбод таълим олиш, малака ошириш, ўз мутахассислик йўналишларини кенгайтириш, саломатлигини сақлашга даъват этиб бориши ҳамда бундай ташаббусларни моддий қўллаб-қувватлаши зарур.

Аҳоли бандлигини таъминлашга мутасадди вазирлик ва идоралар ҳудудлар кесимида келгуси 5-10 йилликда талаб юқори бўладиган касблар таҳлилини тайёрлаб, ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўқитишда ана шу таҳлиллар асосида курслар ташкил этилишига эътибор қаратишлари зарур.

Олий таълим тизимида ўқитилаётган айрим мутахассисликларни техникумларга ўтказиш орқали ўқув муддати ва харажатларини тежаш, энг муҳими, замонавий касб-ҳунар эгалари сафини оширишга эришиш мумкин. Бундай техникумлар ва касб-ҳунарга ўргатиш мономарказларида замонавий касблар ва хорижий тилларни ўқитиш, Туркия, Жанубий Корея, Германия, Ҳиндистон ва Япониядан мутахассислар жалб қилиш мақсадга мувофиқ.

Вазирлик ва идоралар, тадбиркорлик субъектлари томонидан олий таълим ва профессионал таълим муассасаларига буюртма бериш тизимини йўлга қўйиш, талабалар учун давлат ташкилотларида иш ҳақи тўланадиган стажировкалар жорий қилиш, таълим муассасалари билан биргаликда уларнинг ўқув дастурларини ишлаб чиқишида иштирок этиш амалий самаралар беради.

Ёшлар ўртасида турли касб-ҳунарлар йўналишида тизимли мусобақалар ташкил қилиш ҳамда ғолибларга устахоналар қуриб бериш, зарур дастгоҳлар тақдим этиш мақсадга мувофиқ.

Янги Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлаш сиёсатини давом эттириш, хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини янада ошириш, уларни қўллаб-қувватлашга доир ислохотларни янги сифат босқичига олиб чиқиш, хотин-қизларнинг таълим ва касбий кўникмалар



олишлари, муносиб иш топишларига ҳар томонлама кўмаклашиш, тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш, иқтидорли ёш хотин-қизларни аниқлаш ва уларнинг қобилиятларини тўғри йўналтириш юзасидан белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш устидан жамоатчилик назоратини кучайтириш зарур.

Узоқ муддатли танаффусдан сўнг меҳнат бозорига қайтаётганлар учун тайёрлаш ва қайта тайёрлашнинг махсус дастурларини ишлаб чиқиш зарур. Бунда, айниқса, болаларни тарбияси билан боғлиқ бўлган узоқ муддатли танаффусдан сўнг ишни тиклашни истаётган аёлларни меҳнат кўникмалари ва касб билимларини тиклаш ҳамда уларга психологик машғулотлар ўтиш учун нодавлат таълим муассасаларининг махсус дастурларни ишлаб чиқишлари ва амалга оширишларини рағбатлантириш мақсадга мувофиқ.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли “«Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/docs/6600413>

3. Абдурахмонов Қ., Қурбонов С. Инсон тараққиёти. Ўқув қўлланма. Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. 180 б.

4. Абдурахмонова Г. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. 694 б.

5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксимо, 2007. 896 с.

6. <https://www.nature.com>

7. <https://openknowledge.worldbank.org>

8. <https://lex.uz>

9. <https://www.stat.uz>



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



## METHODOLOGICAL ASPECT OF HUMAN CAPITAL ASSESMENT

**Azimov Tolmas Nematullaevich**

Tashkent State University of Economics

e-mail: [t.azimov@tsue.uz](mailto:t.azimov@tsue.uz)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a37](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a37)

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishga alohida urg'u berilgan edi. Mamlakatda aholi farovonligini oshirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish qishloq hududlarini izchil rivojlantirish bilan hamohang hisoblanadi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. Zero, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha katta salohiyatga ega. Ta'kidlash joizki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining to'rtidan biri (2022-yil yakuniga ko'ra-25,1%i), aynan mazkur sohaga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, respublika bo'yicha band bo'lgan aholining qariyb 24,9%i (2022-yil 3-chorak yakuniga ko'ra) qishloq

xo‘jaligi tarmog‘iga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich 3,5 mln kishini tashkil etmoqda[4].

Bu esa, nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlash va aholi farovonligini oshirishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni g‘oyatda muhim ekanligini, balki bevosita sohada amalga oshiriladigan islohotlarga ham bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Qishloq hududlarida aholi bandligini oshirish, xususan bandlikning sifat ko‘rsatkichlariga urg‘u berish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud.

Mashhur iqtisodchi olim J.M.Keyns [5] o‘z asarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, xususan ish bilan bandlik tizimining bir qismi sifatida mehnat bozorini tartibga solish, to‘liq bandlikka erishish davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri ekanligi hamda ish bilan bandlik, milliy daromad hamda jamg‘arish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalarining fundamental jihatlariga alohida e‘tibor qaratgan.

Akademik Q.X.Abdurahmonov “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot nomli darsligi”da [2] mehnat bozorining mohiyati va turlari, uning shakllanish shart-sharoitlari, tartibga solish usullari, mehnat bozori modellari va unda kasaba uyushmalarining roli, aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va nazariy yondashuvlar, raqobatbardosh bo‘lmagan aholining ish bilan bandligi, mehnat resurslari mobilligi va migratsiyasi muammolari yoritib berilgan.

Professor Sh.R.Xolmo‘minov va boshqalar tomonidan chop etilgan monografiyada [6] qishloq aholisini ish bilan ta‘minlashning nazariy-metodologik asoslari va metodik mexanizmlari ishlab chiqilgan hamda ular tanlangan mehnat resurslari bilan ortiqcha va kam ta‘minlangan qishloq hududlari kompleks tahlilini amalga oshirishda tatbiq etish natijalari bayon qilingan.

Ayrim olimlar qarashlarida “qishloq joylari”, “qishloq mehnat bozori” terminlarining qo‘llanilishi ustida bahsli yondashuvlar mavjud. Ayniqsa, V.M.Bautin va V.V.Kozlovlar “qishloq joylari” terminining o‘rniga, “shahar hududlari” terminiga monand “qishloq hududlari” terminining qo‘llanilishi maqsadga muvofiq degan fikrni ilgari suradilar [7]. Xorijlik va mahalliy olimlarning fikrlariga ko‘ra, so‘zlar morfologiyasini chuqurlashtirmasdan “qishloq joylari” va “qishloq hududlari” terminlarini bir xil mazmuni bildiruvchi sinonimlar sifatida qabul qilsa bo‘ladi.

A.V.Petrikovning fikriga ko‘ra, “qishloq jamiyatning ijtimoiy-hududiy tizimosti tizimi bo‘lib, u o‘zida qishloq aholisi, qishloq hayot faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy, tabiiy va tarixiy-madaniy majmuani, shu bilan birga, hududni undagi moddiy ob‘ektlarni aks ettiradi” [8].

So‘nggi o‘n yillikda xalqaro tavsifda “qishloq hududlari taraqqiyoti” atamasi qishloq aholi punktlari aholisining hayot sifati va iqtisodiy farovonligini oshirishga, shuningdek, qishloq inqirozi deb ataladigan holatga –

qishloq hududlarida kuzatilayotgan noqulay iqtisodiy va demografik tendensiyalarga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini anglatadi. Ushbu konsepsiya ham an’anaviy qishloq faoliyati samaradorligini oshirishni, ham zamonaviyroq tarmoqlarni, birinchi navbatda turizmni rivojlantirishni nazarda tutadi [9].

Hududiy mehnat bozorida davlatning u yoki bu islohotlari milliy mehnat bozorini tartibga solish turiga mos holda, umuman, hududga bog‘liq holda o‘zgarib turishi mumkinligini istisno etilmaydi. Ko‘pchilik iqtisodchi olimlar davlat mehnat bozorini faol va passiv tartibga solish usullarini nazarda tutadilar [10]. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy qonunlar hududlarda aholini ish bilan bandligini ta‘minlashdan ko‘ra, davlatning ko‘proq ishsiz aholini ish bilan bandligiga ko‘maklashuvini talab etadi. Shunday ekan, qishloq hududlari mehnat bozoridagi talab va taklif hajmi shahar hududlaridan kam bo‘lib, mavsumiy va qishloq hujaligiga ixtisoslashuvi bilan farqlanadi.

Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz qishloq hududlarida aholi bandlik darajasini oshirishda zaif bandlikdan unumli bandlik tamoyillariga bosqichma-bosqich o‘tkazishga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Qishloq hududlarida aholi daromadlarini oshirishning oqilona yo‘llaridan biri bu – aholi ish bilan bandligida sifat ko‘rsatkichlarga asosiy e‘tiborni qaratgan holda, qishloq hududlarida aholi unumli bandligini doimiy baholab borish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Bunda samarali bandlik, unumli bandlik va zaif bandlikning farqli jihatlarini chuqur anglab olish maqsadga muvofiqdir.

**Samarali bandlik** aholi ish bilan bandlikka ehtiyojining mavjud ish o‘rinlariga muvofiq kelishidagi sifat xususiyati bo‘lib, iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat resurslaridan eng oqilona foydalanishni, ijtimoiy jihatdan mehnat faoliyatining inson manfaatlariga eng muvofiq kelishini bildiradi [3].

Bizning unumli va zaif bandlikka mualliflik ta‘rifimiz quyidagicha: **unumli bandlik** – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste‘mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir. **Zaif bandlik** - bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste‘mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltira olmaydigan faoliyatdir.

Unumli bandlik tamoyillari quyidagiga asoslanadi:

- ish joyi barqaror va yaxshi mehnat sharoitlariga ega bo‘lishi kerak;
- ish haqi xodimning o‘zi va boquvchilarini amaldagi kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste‘molni ta‘minlay olishi kerak;
- ayrim hollarda bunga ish haqiga mos malaka ham talab etiladi.

Bugungi kunda kambag‘allikni qisqatirish, aholi daromadlarini oshirish aholi bandligi negizida amalga oshirilayotgan ekan, bunda zaif bandlikdan farqli o‘laroq, eng oqilona tanlov – hududlarda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan qishloq hududlarida unumli bandlik tamoyillari asosida aholi daromadlarini oshirish masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o‘rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo‘llanildi.

### **Tahlil va natijalar**

O‘z navbatida aytish lozimki, so‘nggi yillarda tobora kuchayib borayotgan iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning melorativ holati buzilishi kabi muammolar sabab, O‘zbekistonda mazkur soha qator muammo va tahdidlar girdobida qoldi. Bundan tashqari, yillar davomida ushbu sohada to‘laqonli bozor munosabatlariga asoslangan islohotlarning amalga oshirilmaganligi, ya‘ni ushbu soha davlat tomonidan eng ko‘p tartibga solinadigan soha bo‘lganligi, davlat buyurtmasi, yerdan foydalanishga bo‘lgan huquqlarning cheklanganligi va himoyalanganligi kabi muammolar ushbu tarmoqdagi samaradorlik, unumdorlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga sabab bo‘ldi.

Aynan shu jihatdan mamlakatimizda 2017-yildan boshlab, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishga oid qator agrar islohotlar olib borilgan.


2019-yilda Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilindi, oradan bir yil o‘tib (2020-yildan) paxta va g‘allani yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini joriy etish orqali davlat monopoliyasiga barham berilgan. 2021-yilda esa yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari belgilandi [11].

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasigamuvofiq, qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravarga oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

1-rasm ma‘lumotlari 2018-2023-yillarda mamlakatimiz qishloq aholisi punktlari soni o‘zgaruvchan harakterga ega ekanligini ko‘rsatdi, buni ma‘muriy-hududiy bo‘linishlardagi o‘zgarishlar bilan izohlash mumkin.

Ma‘lumki, 2019-yildan boshlan yillarda O‘zbekistonda qishloq aholi punktlari soni kamayish sur‘atlari qayd etildi: 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 0,08% yoki 9 taga ortgan bo‘lsa, 2020-yilda – 0,17 %ga tushgan. 2021-yilda esa o‘zgarishsiz qolgan. 2022-yilga kelib, keskin tushib ketgan, ya‘ni – 32 taga kamayib, 10964 tani tashkil etdi.





**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi qishloq aholi punktlari soni, yil boshiga, birlik [13]**

Biroq, “O‘zbekistonda kambag‘allik asosan qishloq joylariga xos. 2018-yilda Qoraqalpog‘iston, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida kambag‘allik darajasi taxminan bir xil (15 foizdan yuqori) bo‘lgan, viloyat aholisining nisbatan ko‘pligi tufayli kam ta‘minlanganlarning deyarli 20 foizi Samarqand viloyatida istiqomat qilgan.

Toshkent shahri va mamlakatning qolgan qismi o‘rtasidagi daromad darajasi va o‘shish sur‘atlarini solishtirganda, daromadlar darajasida aniq farqlar seziladi.


Toshkent shahrida o‘rtacha ish haqi 2018-yilda respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 61%ga, qishloqlardagi o‘rtacha ish haqiga nisbatan 88%ga yuqori bo‘lgan. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda mamlakatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari kambag‘allikni qisqartirish va iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish hisoblanadi” [12].

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-son Farmoni bilan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun faoliyat turlari ro‘yxati kengaytirildi.

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatiga 19 ta tur qo‘shildi. Milliy taqinchoqlar, atlas va adras ishlab chiqarish, qo‘ziqorinlarni yig‘ish, uyda yetishtirish va sotish va boshqalar shular jumlasidan [17]. Shunday qilib, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati 101 taga yetdi. Biroq, Xalqaro Mehnat tashkiloti bunday bandlike turini 1993-yildagi bandlik tasnifiga ko‘ra zaif bandlik toifasiga kiritgan.

Ma‘lumki, mavjud mehnat resurslari taqsimoti hududiy bo‘linmalar potentsiali hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining shahar va qishloq hududlari bo‘yicha joylashuvi so‘nggi 20 yillikdagi o‘zgarishi

2002-yilda mos ravishda 40,1% va 59,9% ni, 2012 yilga 53,9% va 46,1% nisbatni, 2022 yilda esa 53,3%ga 46,7%ni tashkil etgan (2-rasm).



**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining hududiy joylashuvi bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi [14].**


Mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar hamda ishsiz aholini ish bilan bandligiga ko‘maklashish hududlar iqtisodiyoti rivojlanishiga, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida quyidagi 9 ta ustuvor yo‘nalish doirasida:

- oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;
- qulay agrobiznes muhiti va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;
- boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;
- tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;
- ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish kabilar e‘tirof etilgan.

Mamlakat aholisining qariyb 50%i yashayotgan qishloq hududlarida, iqtisodiyotning to‘rtidan bir qismini tashkil etayotgan va qariyb 3,5 mln. kishi band bo‘lib turgan qishloq xo‘jaligi sohada tegishli islohotlarni jadallashtirish,

albatta kelgusida mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.



**3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faol aholi joylashuvi bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi [14].**

2002-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faol aholi soni 9367,8 ming kishidan 15038,9 ming kishiga yetgan yoki 60,53% ga ortgan. Buni shahar va qishloq hudulari bo‘yicha joylashuvi bo‘yicha tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatmoqda: 2002-yilda shahar va qishloq hudularida iqtisodiy faol aholi ulushi mos ravishda 44,8% va 55,2% nisbatni ko‘rsatgan bo‘lsa, 2012-yilda buning aksi, ya’ni 53,3% va 46,7%ni, 2022-yilga kelib, 52,8% va 47,2% nisbatlarni qayd etdi. 2022-yilda qishloq hududlarida iqtisodiy faol aholi soni 7093,6 ming kishini, shahar hudularida esa 7945,3 ming kishini tashkil etdi.

Qishloq hududlarda aholi turmush farovonligini oshirish, ularni yaxshi yashashi va ish bilan band bo‘lishi, sifatli ta’lim va yuqori darajali tibbiy xizmatlardan foydalana olish holatini yaxshilash bevosita barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda milliy malaka tizimini xalqaro standartlar asosida ishlashini ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, qishloq hududlarida tadbirkorlikni yanada kengaytirish zamonaviy infratuzilmani yaxshilashga, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish jarayonining barqarorlashtirishga hamda yangi malakali ish o‘rinlarini yaratish orqali aholining farovon turmushini ta’minlashga imkon yaratadi.

Bu borada jahonning rivojlangan mamlakatlarida bir qator ijobiy tajribalar mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish O‘zbekiston qishloq hududlarida ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Xalqaro tajribalar.** Yevropa ittifoqi (YeI) qishloq hududlarining rivojlantirish siyosati asosida aholi unumli bandligini ta’minlash, shahar va qishloq aholi punktlarida bir xil turmush tarzi shart-sharoitlarini yaratish maqsadi yotadi. Masalan, YeIning qishloq joylarida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi qishloq xo’jaligi maxsulotlari bozorlarini boshqarish chora-tadbirlari bilan to’ldiriladigan umumiy qishloq xo’jaligi siyosatining (CAP) tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi [15]. Qishloq hududlarini rivojlantirish siyosati Yevropaning tarkibiy va investitsiya fondlarining (YeSIF) qator ijtimoiy-iqtisodiy dasturlari asosida amalga oshirishni aks ettiradi [16]. Shuningdek, ushbu dasturlar Yevropa qishloq xo’jaligini rivojlantirish jamg’armasi (YeAFRD) tomonidan ham moliyalashtirilgan. Masalan, 2014-2020 yillarda dasturni amalga oshirish uchun 100 milliard yevro mablag’ ajratilgan. Bunda Ittifoqqa a’zo davlatlar yetti yillik muddatga moliyaviy ajratmalar olgan. Bundan tashqari, qo’shimcha 61 mlrd. yevro investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan. Bu davrda 28 ta a’zo davlatda 118 xil qishloq xo’jaligi va unga tutash tarmoqlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqib, amalga oshirgan.

Yevropa ittifoqiga a’zo davlatlar o’z hududlarining ehtiyojlari asosida qishloq hududlarida biznes turlarini rivojlantirish mahalliy dasturlarini ishlab chiqdi. So’ngra Yevropa Ittifoqining quyidagi umumiy ustuvor yo’nalishlariga moslashtirish va bozor nuqtai nazardan bog’lashdi. Jumladan, qishloq xo’jaligi uchun bilim va innovatsiyalarni targ’ib qilish, qishloq hududlarining hayotiyli va raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion qishloq xo’jaligi texnologiyalari va barqaror o’rmon boshqaruvini joriy etishni rag’batlantirish; xavfsiz va uzluksiz oziq-ovqat zanjirini tashkil etish (Safety in the agri-food chain), jonzoqlar uchun qulay (farovon) muhit yaratish va qishloq xo’jaligida risklarni boshqarish, hududiy ekotizimlarni tiklash, saqlash va mustahkamlash; resurslarni tejashga ko’maklashish va qishloq xo’jaligi, oziq-ovqat va o’rmon xo’jaligi tarmoqlarida kam chiqindili (past karbonli) yashil iqtisodiyotga o’tishni qo’llab-quvvatlash; qishloq joylarida ijtimoiy integratsiyalashuvni yo’lga qo’yish, qambag’allikni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishni rag’batlantirish shular jumlasidan edi.

Osiyo davlatlarida qishloq joylarini rivojlantirish bo’yicha Hindiston tajribasini namuna sifatida keltirish mumkin. Bu mamlakat aholisining to’rt dan uch qismi qishloq hududlarida yashaydi. Bu hududlarda qishloq xo’jaligi tarmog’i aholini ish bilan to’liq ta’minlay olmaydi. Shu sababli, qishloq joylarida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi (IARA) ishlab chiqilgan. Bu dastur kichik sanoat zonalarini tashkil etish, turizm, sport va boshqa xizmat ko’rsatish sohalari, mahalliy xunarmandchilikni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar rejalarini o’zida jamlagan.

Shuningdek, “Raqamli Hindiston” (Digital India) dasturi bo’yicha 250 ming qishloq joylarida (jami qishloqlarning 40%) internet kommunikatsiyalarni o’rnatish nazarda tutilgan. Shuningdek, bu dasturda har bir inson uchun foydali bo’lgan raqamli infratuzilmani shakllantirish, raqamli

texnologiyalar yordamida boshqaruv va xizmatlarni hamda barcha aholining imkoniyatlarini kengaytirish maqsadlari ko‘zlangan.

Shuningdek, Hindistonning qishloq hududlarida tadbirkorlikning ana’anaviy turlari hisoblangan hunarmandchilik, savdo, turizm, xizmat ko‘rsatish, dehqonchilik va chorvachilik maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bilan birga “Qishloq startapi” (“Startup Village”) dasturi amalga oshirilmoqda. Bu dastur bo‘yicha qishloq joylarida organik qishloq xo‘jaligi turlarini, chiqindilarni qayta ishlash chora-tadbirlarini, o‘rmon xo‘jaligini tijoratlashtirishni (evkalipt, topol, bambuk kabilardan mebel sanoatida keng foydalanish), chorvachilik va ipakchilikka innovatsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish nazarda tutilgan.

Dunyoning yirik davlatlaridan biri Xitoyda ham qishloq hududlarini raqamlashtirish, industriyalashtirish orqali urbanizatsiyani jadal rivojlantirishga erishganini kuzatish mumkin. Bunda mamlakatning g‘arbiy zonasidagi qoloq hududlarni rivojlantirish, bu yerlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohalari va bozorlarini yanada faollashtirish, shahar va qishloq aholisi o‘rtasida daromadlarini tenglashtirish, kambag‘allikni qisqartirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgandi.

Xitoy tajribasida unumli bandlikning eng oqilona yechimi qishloq joylardagi kambag‘allar shug‘ullanayotgan tadbirkorlikda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar uchun online bozorlarni joriy etgani deb hisoblaymiz.

### **Xulosa va takliflar**

O‘zbekiston qishloq hududlarida unumli bandlik darajasini oshirish ko‘p qirrali vazifa bo‘lib, ular turli strategiyalarni o‘zida qamrab oladi ichiga oladi. Bugungi kunda qishloq hududlarida aholi unumli bandligi darajasini oshirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, qishloq xo‘jaligini izchil rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunga zamonaviy dehqonchilik texnikasini joriy etish, sug‘orish tizimini yaxshilash, sifatli urug‘lik va o‘g‘itlar bilan ta‘minlash orqali erishish mumkin. Organik dehqonchilik va barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini rivojlantirish ham yangi bozorlarni ochishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq hududlarida sifatli ta‘lim va xodimlar malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Qishloq hududlari ehtiyojlariga moslashtirilgan ta‘lim, treninglar va professional ta‘limni joriy etish qishloq aholisini talab qilinadigan ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin.

Uchunchidan, qishloq hududlari infratuzilmasini tubdan yaxshilash lozim. Ayniqsa, yo‘llar, elektr energiyasi va internet aloqasi kabi infratuzilmani rivojlantirish biznes operatsiyalarini osonlashtirishi, bozorlarga kirishni yaxshilashi va investitsiyalarni jalb qilishi mumkin. Qishloq hududlarida “Smart Village (Aqlli qishloq)” va “Digital Village (Raqamli qishloq)” kabi dasturlarni ishlab chiqish va buni davlat va xususiy sherikchilik mexanizmi orqali amalga oshirish lozim.



To‘rtinchidan, qishloq hududlari iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, ya’ni qishloq turizmi, hunarmandchilik va kichik sanoat kabi qishloq xo‘jaligidan tashqari faoliyatni rag‘batlantirish daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va qishloq xo‘jaligiga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi.

Beshinchidan, qishloq hududlarida kredit va moliyaviy xizmatlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish tizimini ishlab chiqish lozim. Ma’lumki, kichik fermerlar va qishloq tadbirkorlari uchun kredit olish imkoniyatini osonlashtirish ularga o‘z bizneslariga sarmoya kiritish va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Bunda mavsumiy holatni ham inobatga olish talab etiladi. Ayniqsa yil boshi va oxirida ularga kredit taklif etish mantiqsizdir.

Oltinchidan, qishloq hududlarida mahalliy qiymat zanjirlarini rag‘batlantirish lozim. Xom-ashyo mahalliy sharoitda qayta ishlanadigan va sotiladigan mahalliy qiymat zanjirlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash qishloq mahsulotlari qiymatini oshirish va bandlik imkoniyatlarini yaratish imkonini beradi.

Yettinchidan, qishloq hududlarida joylashgan kichik va o‘rta korxonalarni samarali qo‘llab-quvvatlash yaxshi natijalar beradi. Qishloq joylarda kichik va o‘rta biznesni subsidiyalar, soliq imtiyozlari va marketingni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘llab-quvvatlash mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirishi mumkin.

Sakkizinchidan, qishloq hududlari uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va innovatsiyalarni joriy etish kerak. Qishloq xo‘jaligi va qishloq sanoatida yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirish samaradorlikni oshirishi va yangi ish joylarini ochishi mumkin.

To‘qqizinchidan, qishloq va shahar aloqalarini mustahkamlash va bunda barqarorlikni ta’minlash lozim. Qishloq va shahar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash tovarlar, xizmatlar va odamlar oqimini osonlashtirishi va qishloq rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

22. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт / Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: ЎзФА «ФАН» нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 592 б.

23. Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини иш билан таъминлаш. Монография.-Т: 2014. 276б. 33-бет.

24. Ф. Юнусов. Қишлоқ хўжалиги соҳасини ривожлантириш – аҳоли фаровонлиги ва барқарор иқтисодиётни таъминлашга хизмат қилади. Манба: [https://strategy.uz/index.php?news=1767#\\_ftn1](https://strategy.uz/index.php?news=1767#_ftn1)

25. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс/.- М.: Гелиос, 1999. - С.112.

26. Холмўминов Ш.Р. ва бошқалар. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг назарий ва амалий асослари Монография. – Тошкент, «Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи», 2018. – 160 б.

27. Баутин В. М. Устойчивое развитие сельских территорий: сущность, термины и понятия / В. М. Баутин, В. В. Козлов // Информационный бюллетень / МСХ РФ, 2006. – № 3-4. – С.64–67.

28. Петриков А. В. О проекте концепции устойчивого развития сельских территорий РФ на период до 2020 года / А. В. Петриков // Муниципальная Россия. – 2010. – № 1 (7). – С. 15–23.

29. Transforming the Rural Nonfarm Economy: Opportunities and Threats in the Developing World (англ.) Edited by Steven Haggblade, Peter B. R. Hazell, and Thomas Reardon (2007), Johns Hopkins University Press.

30. OECD Yemployment Outlook (2009-2018 yil nashrlari) [http://www.oecd-ilibrary.org/deliver/fulltext?itemId=/content/publication/yempl\\_outlook-2018-yen&mimeType=freepreview&redirecturl=http://www.keepeek.com/Digital-Asset-Management/oecd/yemployment/oecd-yemployment-outlook-2018\\_yempl\\_outlook-2018-yen&isPreview=true](http://www.oecd-ilibrary.org/deliver/fulltext?itemId=/content/publication/yempl_outlook-2018-yen&mimeType=freepreview&redirecturl=http://www.keepeek.com/Digital-Asset-Management/oecd/yemployment/oecd-yemployment-outlook-2018_yempl_outlook-2018-yen&isPreview=true)

31. Қишлоқ хўжалиги соҳасини ривожлантириш – аҳоли фаровонлиги ва барқарор иқтисодиётни таъминлашга хизмат қилади // манба: [https://strategy.uz/index.php?news=1767#\\_ftn1](https://strategy.uz/index.php?news=1767#_ftn1)

32. Samarasiz mehnat bozori — eng zaif bo‘g‘in: O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha nimalar amalga oshiriladi? // Manba: <https://daryo.uz/2022/05/28/samarasiz-mehnat-bozori-eng-zaif-bogin-ozbekistonda-kambagallikni-qisqartirish-boyicha-nimalar-amalga-oshiriladi>

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisobi. Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisobi. Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market->

35. The common agricultural policy at a glance. [https://ec.europa.eu/info/food-farming-fisheries/key-policies/common-agricultural-policy/cap-glance\\_en](https://ec.europa.eu/info/food-farming-fisheries/key-policies/common-agricultural-policy/cap-glance_en)

36. European structural and investment funds. [https://ec.europa.eu/info/funding-tenders/funding-opportunities/funding-programmes/overview-funding-programmes/european-structural-and-investment-funds\\_en](https://ec.europa.eu/info/funding-tenders/funding-opportunities/funding-programmes/overview-funding-programmes/european-structural-and-investment-funds_en)

37. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun faoliyat turlari ro‘yxati kengaytirildi // Manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/13/self-employed/>



# МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



## ТАШҚИ МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Исраилова Дилфуза Каримовна**

“University of economics and pedagogy” НОТМ

“Иқтисодиёт ва ижтимоий фанлар” кафедраси профессори, и.ф.д.

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a41](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a41)

**Аннотация.** Ушбу мақолада ташқи меҳнат миграциясининг мамлакат иқтисодий хавсизлигига таъсири, унинг ижтимоий оқибатлари, бу борадаги давлатнинг миграция сиёсати ва уни амалга оширишнинг институционал механизмларини такомиллаштириш ҳақида фикрлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** ташқи меҳнат миграцияси, миграция миқёслари, мигрантлар реинтеграцияси, инсон капитали, ноқонуний миграция, иқтисодий хавфсизлик, миграциянинг ижтимоий оқибатлари.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

**Исраилова Дилфуза Каримовна**

“University of economics and pedagogy” НВУЗ

Профессор кафедры “Экономика и социальные науки”, д.э.н.

**Аннотация.** В данной статье описывается влияние внешней трудовой миграции на экономическую безопасность страны, её социальные последствия, миграционная политика государства и вопросы совершенствование институциональных механизмов.

**Ключевые слова:** внешняя трудовая миграция, масштабы миграции, реинтеграция мигрантов, человеческий капитал, нелегальная миграция, экономическая безопасность, социальные последствия миграции.

## IMPROVING INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR REGULATING EXTERNAL LABOR MIGRATION

**Israilova Dilfuza Karimovna**

“University of economics and pedagogy” NHEI

Professor of the department of “Economics and social sciences”, doctor of economic sciences

**Abstract.** This article describes the impact of external labor migration on the economic security of the country, its social consequences, state migration policy and issues of improving institutional mechanisms.

**Keywords:** external labor migration, scale of migration, reintegration of migrants, human capital, illegal migration, economic security, social consequences of migration.

## **Кириш**

Жаҳонда ташқи меҳнат миграцияси меҳнат мигрантларини юборувчи ва қабул қилувчи мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсир этувчи асосий омиллардан бири бўлиб, унинг мамлакатлар меҳнат бозори ва меҳнат ресурслари таркибини шакллантириш, демографик жараёнларни тартибга солиш ҳамда аҳолини иш билан бандлигини таъминлашдаги роли мунтазам равишда ошиб бормоқда.

Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси жараёнларини тартибга солиш масаласига жиддий ёндашилмоқда: давлат ноқонуний меҳнат миграциясига қарши курашмоқда, фуқароларни ҳорижга уюшган ҳолда ишга жойлаштириш учун шарт-шароит яратилмоқда ва собиқ меҳнат мигрантларини ватанга қайтганидан кейин реинтеграция қилинмоқда.

Ўзбекистонда мигрантларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича кенг қамровли ва узоқ муддатли стратегия қабул қилинди, биринчи марта ўз ватанига қайтгач, иқтисодий қийинчиликларни бартараф этиш ва инсон капиталини ривожлантириш учун бандлик механизми ишлаб чиқилди.

## **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Ташқи меҳнат мигрантлари билан ишлаш давлат инсонпарварлик сиёсатининг ажралмас қисми ҳисобланади. Ўзбекистонда халқаро ҳуқуқий тамойил ва нормалар қабул қилинган, бу борадаги миллий қонунчилик ҳам такомиллаштирилмоқда. 2018 йилда Ўзбекистон республикаси Халқаро миграция ташкилотига аъзо бўлди ва ХМТ Конституциясини ратификация қилди, “Хорижда яшовчи ва меҳнат қилаётган ватандошлар билан ҳамкорлик қилиш бўйича давлат сиёсати концепцияси” ҳамда Ўзбекистон республикаси билан ҳамкорликни ривожлантириш бўйича устувор чора-тадбирлар дастури қабул қилинди. Сўнгги йилларда 10 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Хусусан, булар қаторида Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 16 октябрдаги “Хусусий бандлик агентликлари тўғрисида”ги ва 2020 йилнинг 20 октябридаги “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июлдаги “Ўзбекистон Республикасининг ташқи меҳнат миграцияси тизимини янада ли такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” 3839-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 августдаги “Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолияти билан шуғулланаётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва уларнинг оила аъзоларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чоралари тўғрисида”ги 5785-сонли, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 августдаги “Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга доир қўшимча чора-тадбирлар

тўғрисида”ги 713-сонли, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 15 сентябрдаги “Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 4829-сонли, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 июлдаги “Хорижга ташкиллаштирилган меҳнат миграциясига кетаётган фуқароларни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” 5205-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Хорижда вақтинча меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ва уларнинг оила аъзоларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 149-сонли қарорлари шулар жумласига киради. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги<sup>60</sup> ПФ-60 сонли Фармони бу борадаги ислохотларнинг изчил давоми ҳисобланади. Ушбу тараққиёт стратегиясининг 86-мақсади “Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграциясини таъминлаш ва самарали миграция сиёсатини олиб бориш” ҳисобланади. Ушбу мақсад доирасида “тартибли миграцияни йўлга қўйиш билан боғлиқ шу соҳадаги давлат сиёсатининг асосий йўналишларини, шаклларини, хорижда Ўзбекистон фуқароларининг шахсий хавфсизлиги ва уларнинг ижтимоий ҳимоясини таъминлаш, ноқонуний меҳнат миграциясини тартибга солиш” бўйича устувор вазифалар белгиланган. Ушбу вазифаларнинг самарали ҳал этилиши аҳолини иш билан самарали бандлигини таъминлашда давлатнинг миграция сиёсатини халқаро тажриба ва миллий хусусиятлар асосида такомиллаштиришни тақазо этади.

### **Таҳлил ва натижалар**

Санаб ўтилган юқоридаги норматив ҳужжатлар қуйидаги муаммоларни ҳал қилишда муҳим роль ўйнайди:

**1. Ноқонуний меҳнат миграциясига қарши кураш.** Сўнгги йилларда миграция миқёсларининг ўсиши ва юзага келаётган муаммолар, белгиланган тартибларни четлаб ўтиш орқали ноқонуний меҳнат миграцияси миқёслари ортиб бораётганини кўрсатмоқда. Бу эса бу борадаги қатор тизимли муаммоларни мавжудлигини билдиради.

Масалан, сўнгги йилларда Россия қонунчилиги мигрантлар учун қаттиқ талабларни қўяётгани, айниқса, Марказий Осиё давлатлари мигрантларидан ҳаддан ташқари кўп ҳужжатлар талаб қилинаётгани боис кўпчилик ноқонуний (нолегал) мақомга тушиб қолмоқда ва табиийки, бу рўйхатдан чиқиб кетмоқда. Уларнинг аниқ сонини аниқлаш эса жуда мушкул. Шунингдек, кўплаб ўзбекистонликлар Россия фуқаролигини олишга улгуриб, аллақачон мигрант мақомидан

<sup>60</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги”ги ПФ-60-сонли фармони. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



чиқишган. Ўзбекистондан Россияга йўналган миграция оқимининг ўзига хос жиҳати шундаки, бу йўналишдаги мигрантларнинг кўпчилиги малакасиз ишларни бажарувчилар, ўз соҳасида ишламайдиган, мураккаб бўлмаган, кам ҳақ тўланувчи ҳар қандай ишни қилиб кетаверадиганлар, яъни қишлоқ хўжалиги, қурилиш соҳасида ишлайдиганлардан иборат. Лекин охириги йиллар тенденциясига эътибор қаратадиган бўлсак, Россияга йўл олган ёки мунтазам бориб келаётган ишчиларнинг малакаси ошиб бормоқда ва улар энди тобора кўпроқ ҳақ тўланувчи ва нуфузли иш ўринларини эгалламоқдалар.

Россия Федерациясидаги норасмий меҳнат миграцияси миқёсининг таҳлили, 2010-2021 йилларда Марказий Осиёдаги Ўзбекистон ва Қирғизистон Республикаларида бу кўрсаткични 4,6 % ва 1,4 % га камайганини, Тожикистон Республикасида 1,0% га яқин ошганини кўрсатди. Бу кўрсаткичнинг камайишида Россия Федерациясининг меҳнат миграциясини тартибга солишга қаратилган дастаклари, чоратадбирлари муҳим роль ўйнади. (1-жадвал)

**1-жадвал**

**Россия Федерациясидаги норасмий меҳнат миграцияси миқёсининг ўзгариши, %**

Мамлакат номи	Йиллар				2021/2010 нисбатан ўзгариши, +, - ;
	2010	2015	2020	2021	
Ўзбекистон	59,5	56,4	55,8	54,9	-4,6
Тожикистон	41,0	43,6	42,7	41,9	0,9
Қирғизистон	66,0	66,2	65,5	64,6	-1,4

Манба: Россия Федерацияси Ички ишлар вазирлигининг Миграция бош бошқармаси. [guv.mvd.rf](http://guv.mvd.rf).

Россия Федерацияси ишлаётган меҳнат мигрантларининг 35,0 фоизи, қурилиш соҳасида, хизмат кўрсатиш соҳасида (турлар бўйича) - 16,7 фоизи, саноат (ишлаб чиқариш)да-15,6 фоиз, қишлоқ хўжалигида - 8,5 фоиз, умумий овқатланишда -7,9 фоиз, савдо-сотикда- 7,1 фоиз, транспорт ва алоқада - 6,8 фоиз, бошқа соҳаларда - 2,1 фоиз, IT-технологияси соҳасида - 0,3 фоизи банд бўлдилар. Таъкидлаш лозимки, Россия Федерациясида 2000 йилдан бери, меҳнатга лаёқатли аҳолининг кескин пасайиши кузатилмоқда ва прогнозларга кўра, 2024 йилга келиб бу кўрсаткич 1,7 миллион<sup>61</sup> кишига камаяди. Шунга асосланиб, Россия

<sup>61</sup>Федорова И., Ушаков М., Гуликян А., Клокова Д. Миграционная политика Российской Федерации: проблемы, тенденции, перспективы развития. Вестник Московского университета МВД России. Юридические науки. М.: 2022. № 1. – с 304-306.

Федерацияси ташқи миграция ҳисобига меҳнатга лаёқатли аҳоли балансини сақлаб қолишни режалаштирмоқда.

Фикримизча, давлат томонидан амалга оширилаётган чора-тадбирлар аҳолининг ҳаракатланишини ўзаро манфаатли бўлишини таъминлашга қаратилиши зарур. Норасмий миграция мамлакатда рўй бераётган сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, демографик жараёнларда, шунингдек, хавфсизлик муаммоларига таъсир кўрсатаётганлиги сабабли давлат чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишда ушбу масалаларни эътиборга олиши мақсадга мувофиқ.

Фуқаролар фақат Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 23 февралдаги 505-сон қарорида белгиланган тартибда ваколатли орган – Ташқи меҳнат миграцияси масалалари агентлиги орқали Республикадан ташқарида меҳнат фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқига эга. 2020 йилда ҳорижга кетган 2 млн.кишидан атиги 109 155 минг нафари ҳуқуқий мақомга эга бўлган бўлса, 2021 йилда бу кўрсаткич 127 360 минг нафар кишини ташкил этди.<sup>62</sup>

Айрим экспертлар ишчи кучини экспорт қилишда давлат монополияси, ҳудудда рақобатнинг йўқлиги, айрим юридик ва жисмоний шахсларнинг ноқонуний меҳнат миграциясини ташкил этишда давлат томонидан назорат қилинмаган ноқонуний фаолиятига олиб келганини таъкидламоқдалар.

Мутахасисларнинг қайд этишича, тартибсиз мигрантлар кўпинча ишга ёллаш агентликлари ва турли ишга жойлаштириш воситачилари томонидан фирибгарлик ва алдов қурбони бўлишмоқда. Улар кўчириш, қонунийлаштириш, керакли тузатишлар ва шартнома тузиш учун катта миқдорда пул тўлашга мажбур бўлмоқда. Ўзга юртга келгач, дастлабки шартномалар камроқ фойда келтирувчи шартномалар билан алмаштирилиши мумкин ва ноқонуний мигрантларнинг ўзлари ҳақорат, жисмоний зўравонлик, камситиш, пул ва мол мулкни қайтармасдан депортация қилиниши мумкин. Ўзбекистон Республикаси ИИВ статистик маълумотларига кўра, 2020 йилда энг кўп тарқалган фирибгарлик тури пул топиш мақсадида чет элга жўнатиш ваъдалари билан боғлиқ (13,9 %).<sup>63</sup>

Шунингдек, норасмий миграцияни тартибга солиш борасида мамлакат фаолиятининг барча йўналишларини ҳар томонлама кўриб чиқишга имкон берадиган сиёсатга асосланиши керак, шунда бир соҳадаги вазиятни яхшилаш бошқа соҳаларга зарар келтирмайди. Фикримизча, бу чора-тадбирлар қуйидагилардан иборат бўлиши мақсадга мувофиқ:

---

<sup>62</sup> Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Ташқи меҳнат миграцияси агентлигининг ҳисобот материаллари. Т.: 2022 йил.

<sup>63</sup> Ўзбекистон Республикаси ИИВ нинг статистик маълумотлари. 2021 й.

– Қонуний миграция имкониятларини (жумладан, демографик босимни ва меҳнат бозоридаги вазиятни юмшатиш, пул ўтказмаларини ўтказишни осонлаштириш) кенгайтириш;

– Чегара хавфсизлигини самарали ташкил этиш (мигрантларни чегарадан ноқонуний чиқиб кетишига, одам савдосига қарши курашиш);

– Мигрантларни ўз ватанига қайтишига ёрдам бериш ва уни рағбатлантириш;

– Мигрантлар борган давлатларда жамиятга интеграциялашувига ёрдам бериш;

– Миграциянинг асосий сабабларини бартараф этишга қаратилган дастурлар (жумладан, келиб чиқиш мамлакатлари ривожланишига кўмаклашиш учун халқаро савдони, инвестицияларни ва ривожланишга ёрдамни кўпайтириш).

**2. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига ноқонуний меҳнат миграциясининг салбий таъсирини камайтириш.** Ноқонуний миграция миқёсларининг кенгайиши давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига ҳам таъсир қилмоқда. Иқтисодий хавфсизликнинг таҳликали чегараларини белгилаш методологиясини ишлаб чиқиш жуда мураккаб. Бу биринчи навбатда статистика билан боғлиқ. Айрим холларда, Давлат статистика қумитасининг маълумотлари билан Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг маълумотлари бир биридан фарқ қилади. Иқтисодий хавфсизлик билан боғлиқ кўрсаткичлар алоҳида (группа) олинган ривожланган давлатларнинг, шу билан бирга тадқиқот қилинаётган мамлакатнинг ёки шу соҳа вакиллари (олимлари) нинг баҳолашлари (тадқиқот натижалари) ҳисобга олинади.<sup>64</sup>

Ишсизлик ва миграциянинг чегаравий кўрсаткичлардан ортиб кетиши давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига салбий таъсир кўрсатади. (2-жадвал)

Жадвал маълумотларидан кўришиб турибдики, 2021 йилда Республикамизга 256,8 минг кўчиб келганлар қайд этилган бўлиб, ҳар 1000 аҳолига кўчиб келиш коэффициенти 7,4 промиллени ташкил этган. Бу кўрсаткични 2020 йилга нисбатан 1,8 промиллега ошганлиги кузатилди. (2020 йилда 5,6 промилле бўлган).<sup>65</sup> Бугунги кунда Ўзбекистон меҳнат бозорида 13,6 миллион киши иш билан банд бўлиб, улардан 5,6 миллион нафари расмий ва 7,9 миллион нафари норасмий секторда, шу жумладан, 2,6 миллион киши меҳнат мигранти сифатида меҳнат қилмоқда. Миграция коэффициенти, тахминий ҳисоб-китобларга кўра, 7,0 фоизни ташкил қилади. Миграция коэффициенти Ўзбекистонда жаҳондаги ўртача кўрсаткичлардан (3,2 %) ва аҳоли жон бошига ўртача даражадаги даромад тўғри келадиган бошқа

<sup>64</sup> Экономическая безопасность. Под редакцией В.А.Богомолова. Изд-во ЮНИТИ. М.: 2010. С.296.

<sup>65</sup> Ўзбекистон Республикасининг демографик ҳолати. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қумитаси маълумотлари.Т.: 2022 й.

мамлакатлардаги кўрсаткичлардан (2,7 %) икки баробар юқори. Визасиз тартиб, тарихий ўзаро алоқа ва рус тилини билиши туфайли ўзбек мигрантларининг катта қисми Россияга кетмоқда. Ишсизлик даражасининг юқорилиги (9,6 фоиз), иқтисодий фаол аҳолининг хорижга ишлагани кетган қисмининг 2,6 млн.кишидан ортиқ бўлиши меҳнатга яроқли салоҳиятдан самарали фойдалана олинмаётганлигини кўрсатади.

**2-жадвал**

**Ишсизлик ва миграциянинг иқтисодий хавфсизлик билан боғлиқ чегара кўрсаткичлари**

<b>Кўрсаткичлар</b>	<b>Таҳликали чегара белгилари</b>
<b>Ишсизлик даражаси (ХМТ методологияси бўйича) (%)</b>	(ХМТ) - 8; (Сенчагов В.К.) - 5; (Глазьев С.Ю.) - 7; (Богданов И.Я.) - 8-10;
<b>Умумий иқтисодий фаол аҳоли таркибидаги, иш изловчи меҳнат билан банд бўлмаганлар улуши (%)</b>	10
<b>Аҳоли миграцияси (киши)</b>	100 (100 та чиқиб кетганларга 100 та кириб келганлар)
<b>Миграция даражаси, %</b>	10 (Сакович А.В.) - < 7*;
<b>Аҳоли таркибида норасмий мигрантлар улуши, %; (Бутунжаҳон банки)</b>	(ХМТ) - 5; ** < 3
<b>Умумий жиноятлар сони (ҳолат)</b>	1 600/100 000 (Ҳар 100 000 аҳолига 5 000-6 000 киши - Богданов И.Я.); (Ҳар 100 000 аҳолига 5 000 киши - Глазьев С.Ю.);

Манба:\*Сакович А.В. Критическая зона пороговых значений социальных индикаторов экономической безопасности. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. М.: 2013. Стр 28; \*\* Халқаро меҳнат мигрантлари бўйича ХМТнинг глобал ҳисоб-китоблари, 2020й; Миграционный информационный источник. <http://www.migrationinformation.org/Resources/> лар асосида муаллиф томонидан тузилган ва кенгайтирилган.


Замонавий миграциянинг яна бир жиҳати шундан иборатки, мигрантларнинг сифат таркиби, яъни таълим даражаси нуқтаи-назаридан ҳам ўзгариб бормоқда. Давлатлараро миграция оқимларида юқори малакали мутахасисларнинг иштироки фаоллашмоқда. Бу вазият реципиент давлатлар учун ижобий ахамият касб этса, донор давлатлар иқтисодиёти учун салбий ҳолат ҳисобланади. Ушбу жараён Ўзбекистонга ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмайди. Айниқса юқори малакали мутахасисларнинг миграция жараёнларида қатнашиши мамлакат ривожига салбий таъсир кўрсатмоқда. Бундан ташқари ёш авлоднинг хорижга ўқиш учун кетиши - таълим миграциясини ортишига сабаб бўлсада, уларнинг айримларини ўз ватанига қайтишни

хохламаслиги салбий ҳолатдир. Салбий жиҳати шундаки, агар талаба миграция жараёнини амалга оширган давлатида қолиб кетса, таълим даражаси сифатли бўлган аҳолининг бир қисмини йўқотган бўламиз.<sup>66</sup>

Ҳозирги вақтда Ўзбекистон Республикаси миграция сиёсатининг устувор йўналиши ташқи меҳнат мигрантларининг хавфсизлигини таъминлашдан иборат.

### 3. Ташқи меҳнат миграциясининг ижтимоий оқибатларини камайтириш.

Тадқиқотимиз натижалари меҳнат миграциясининг гендер хусусиятини ўзгараётганлигини кўрсатмоқда. Аёлларнинг биринчи навбатдаги ўрни оилададир. Уларнинг узоқ муддат уйларида бўлмаслиги фарзандлар тарбиясига ҳам салбий таъсир кўрсатмоқда. Ҳорижга бориб ишлаш учун албатта вақтинча бўлса ҳам рўйхатдан ўтилади. Айрим ҳолатларда бундай вазиятларда эркаклар томонидан фиктив - “сохта” никоҳ қуриш ҳолатлари ҳам кузатилади. Ўз-ўзидан ўзга юртларда бундай никоҳларнинг юзага келиши нафақат оиласига пул жўнатмаларини пасайишига ёки умуман тўхтаб қолишига, шу билан бирга, оилавий ажримларнинг ҳам ўсишига олиб келади.



1.-расм. Меҳнат мигрантлари оилаларидаги ажримлар динамикаси, %.

Меҳнат мигрантларининг оилавий ахvoli таҳлили, охириги йилларда ажралиш кўрсаткичларини ўсаётганлигини кўрсатмоқда. Масалан бу кўрсаткич 2012 йилда жами мигрантларнинг 5,1 фоизини ташкил этган. 2019 йилга келиб жами мигрантларнинг 20,6 фоизи ажрашган ёки бева бўлса, аёллар ўртасидаги ажралиш ҳолатлари эркакларга нисбатан 0,3 фоизга ошган. 2021 йилда бу кўрсаткич мос равишда 10,2 ва 10,4 фоизга ўзгарган. Маълумотлар таҳлили, ажралишларнинг 28,4 фоизи битта фарзанди билан ва 21,1 фоизи икки

<sup>66</sup> Хашимов П.З. Усмонова Г.А. Ўзбекистонда аҳоли миграциясининг хусусиятлари. Иқтисод ва молия. Т.: 2021 йил № 10 (146) 57-60 б.



ва ундан ортиқ фарзанди билан, 50,5 фоизи фарзандсиз оилалар ҳиссасига тўғри келмоқда.<sup>67</sup>

Ажралишлар сонини ортиши ота-она тарбияси ва ғамхўрлигидан ажралган ҳолда шаклланаётган замонавий ёш авлоднинг шаклланишига ва ижтимоийлашувига ҳам ўз салбий таъсирини кўрсатмоқда. Бошқа томондан, бобоси, бувиси ва бошқа қариндошлари қўлида қолган болалар оиладаги зўравонликка, айрим ҳолатларда катта қариндошлар томонидан жинсий зўравонликка дучор бўлмоқда.<sup>68</sup>

Оилавий кадриятлар сақланиб қолмаса, ҳар қандай давлатнинг иқтисодиёти ривожланишдан тўхтайдди. Давлатнинг энг муҳим бойлиги бахтли оилалардир. Дарҳақиқат ҳар қандай давлатнинг асосий мақсади бу жамият асосини ташкил этадиган фаровонлик, оилалар фаровонлиги ва саломатлигидир. Бироқ, деярли чорак аср давомида Марказий Осиёда ёшларнинг салмоқли қисми ота- онасиз ўсди. Бўлинган оилалар муҳитида ўсган авлод шаклланди. Масалан, БМТ- Аёллар ташкилоти маълумотларига кўра, турмуш қурган мигрантларнинг 50,0% дан ортиғи ташқаридаги муносабатларда (оиладан ташқарида) иштирок этган.<sup>69</sup> Мисол учун, Тожикистон Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотларига кўра, бир йил ичида ишга кетган эркаларнинг 40,0% дан ортиғи хотини билан ажрашган.<sup>70</sup>

Ота- оналарнинг миграцияси болаларни ижтимоий ҳимоя қилиш, сифатли таълим олиш ва жамият ҳаётидаги иштироки, ҳуқуқларини амалга оширишни таъминламайди. Миграциянинг ижтимоий оқибатларини эътироф этиш, ота- оналар миграциясининг уйда қолган болаларга салбий таъсирини юмшатиш бўйича далилларга асосланган сиёсат ва дастурларни қабул қилиш бу йўлдаги муҳим қадамдир. Шу маънода, миграция БМТнинг Болалар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясида (БМТ- СРС, 1989) назарда тутилган болаларни ҳимоя қилиш, таълим олиш, жамиятда иштирок этиш ва мустақил қарорлар қабул қилиш ҳуқуқларини кафолатлай олмайди.

Маълумотлар таҳлили, 2021 йилда ота-онасидан бири меҳнат мигранти бўлган болаларнинг тўлиқ давлат таъминотидаги муассасаларда тарбияланаётган қисми 935 нафарни, шундан 75 нафари ота-онасининг ҳар иккаласи меҳнат мигрантлари бўлганлигини кўрсатади. Уларнинг қарийб 46,0 фоизи Самарқанд (17,8 %), Хоразм (14,7 %), Фарғона (13,3%) вилоятларига тўғри келади. Шу жумладан, 17 та Меҳрибонлик уйи ва 4та Болалар шаҳарчасида 158 нафар, 3та SOS Болалар маҳаллаларида 20 нафар, махсус мактаб интернатларида 757нафари тарбияланаётгани меҳнат миграциясининг болалар

---

<sup>67</sup> Ўзбекистон республикасининг демографик ҳолати. 2021 йил январь - декабрь.

<sup>68</sup> Д.М.Мирзахалилова. Ташки миграциянинг ижтимоий жиҳатларга таъсири. Молодой ученый.№ 23 .(313) 2020

<sup>69</sup> С.Риков. Миграция- родная сестра развода или почему Институт семьи под угрозой даже в Узбекистане. nuz.uz/ o- migracii

<sup>70</sup> Ўша манба

тарбиясига таъсирини яққол кўрсатади. Болалар узоқ йиллар мобайнида оила муҳитидан узоқда ота- онаси меҳри ва ғамхўрлигини ҳис қилмай ўсишга мажбур. Аммо бунда Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенциянинг 7,13,19,20 –моддалари, ЎзР Оила Кодексининг 65-моддасидаги боланинг оилада яшашга, ҳаётий кўникмаларни ривожлантириш учун оилавий мақбул шароитда ўсишга бўлган ҳуқуқи бузилишига сабаб бўлмоқда.

Меҳнат миграцияси жамиятда ҳамда оилалар ижтимоий муаммоларининг авж олишига ҳам бевосита таъсир қилган омил ҳисобланади. Бу оилавий тизимда–уни ташкил этувчи турли муносабатлардаги қуйидаги йўқотишларга сабаб бўлиши мумкин:

– оилавий муносабатлар тизимидаги бузилишлар: эр-хотин муносабатидаги функционал бузилишлар, ишончсизлик, ажралишлар, хиёнат;

– ота- она ва фарзанд муносабатларидаги муаммолар. Бу эса ўз навбатида боланинг шахси, шахслараро муносабатлари хусусиятлари, ота-она обрўси ва шу каби бошқа муносабатлардаги муаммолар юзага келишига сабаб бўлади;

– ота-она ёки улардан бирининг назоратсиз қолган болаларда шахс тузилмасида турли ўзгаришлар: ўзининг мансублиги соҳасини англаши, ота-она функцияларининг оиладаги тўнғич фарзандга ўтиши билан болаларнинг кун та тартиби ва мажбуриятидаги ўзгаришлар, таълимий қизиқишларнинг сўниши ва ҳ.к.<sup>71</sup>

